



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

LINGVODIDAKTIKA

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbek tili va adabiyoti



**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Toshkent – 2022

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Z.Xolmanova** – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: **B.Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor
M.Abdurahmonova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
S.Normamatov – filologiya fanlari doktori
E.Ushenmez – filologiya fanlari doktori, professori
Turkiya Istanbul universiteti

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2020-yil 29-dekabrda 7-sonli qarori)**

MUNDARIJA

T/r	Bo'limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	16
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	29
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	54
V.	KEYSLAR BANKI	85
VI.	GLOSSARIY	87
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	97
VIII.	TAQRIZ	101

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil

etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son, 2020-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850 farmonlari mazmunidan kelib chiqqan holda ta'lim bosqichlarida til o'qitish tizimini tubdan yangilash, ona tili ta'limini rivojlantirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish millat taraqqiyoti uchun dolzarbdir. Ushbu talablar asosida pedadog-kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o'quv jarayoniga kiritilgan "Lingvodidaktika" moduli til o'qitish jarayoni, usullari, vositalari, metodlari, metodikasi va metodologiyasining umumiy nazariyasi sifatida talqin etiladi.

Lingvodidaktika, garchi ko'p hollarda chet tillarini o'rganish usullari hamda vositalariga urg'u berilgan bo'lsa-da, ona tili va o'zga tillarni o'qitishning mazmuni, vositalari hamda usullarini tahlil qiluvchi fandır. Lingvodidaktika – "ta'lim, o'quv jarayoni mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o'zaro faoliyati mexanizmi"ni o'rganuvchi, til o'qitish metodikasini pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog'liq ravishda talqin qiluvchi, kompyuter

lingvodidaktikasi, kompyuter dasturlari, o'qituvchi lingvistik avtomatlarning til ta'limidagi ahamiyatini yorituvchi amaliy soha.

Modulning maqsadi, vazifalari

“Lingvodidaktika” modulining asosiy maqsadi fan mazmunini milliy til asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirish, til o'qitish jarayoni, mazmuni, yo'nalishi, usul hamda vositalarini tahlil qilish, ta'lim subyekting imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-psixologik omillarini aniqlashdan iborat.

Tilni o'qitish maqsadida tavsiflash, tillar o'rtasidagi universalialar va farqli jihatlarni tadqiq qilish, o'rganilayotgan tilning tuzilishi va mazmunini, til minimumlarini aniqlash, til o'zlashtirishdagi nuqsonlar tabiatini o'rganish, til xususiyatlarini o'rganuvchilarning ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, yosh va individual belgilari kontekstida tadqiq qilish, tilni mukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish, tillarni o'rganish metodikasi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq muammolarni aniqlash, til o'rganishni o'quv predmeti sifatida belgilash, turli o'quv sharoitlarida o'rganilayotgan tilni va til sohiblari idrok etgan olam lisoniy manzarasining o'zlashtirilish darajasini izohlash, tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani anglash va o'zlashtirishni analiz qilish modulning asosiy vazifalaridir. Ona tilini o'zlashtirishda ham, chet tillarini o'rganish jarayonida ham tilning grammatik xususiyatlari, grammatika negizida fonetik, leksik belgilari o'rganiladi. Shu bois lingvistika va pedagogika chegarasidagi muammolarni hal qilish, o'rganilayotgan til strukturasini tahlil qilish, tillarning universal va farqli jihatlarni aniqlash ham lingvodidaktikaning vazifalari hisoblanadi.

“Lingvodidaktika”ning obykti til o'rgatish amaliyoti, deb belgilangan bo'lsa, til o'qitish va o'rgatish jarayoni haqida umumlashtirilgan tasavvur berish, til o'zlashtirishga zamon talablari va shaxs idroki, qobiliyatidan kelib chiqib yondashish fanning predmetini tashkil qiladi.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar

“Lingvodidaktika” modulini o'zlashtirish jarayonida tinglovchi:

- tillarning muvofiq universal va farqli jihatlarini, modulning fan mazmunini milliy til asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirish, til o'qitish jarayoni, mazmuni, yo'nalishi, usul hamda vositalarini tahlil qilishdan iborat maqsadi, til o'qitish metodikasining pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog'liq ravishda rivojlanishi, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter texnologiyalari, til o'rgatish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari, o'qituvchi lingvistik avtomatlar haqida **bilishi kerak**;
- tilning aktual holati bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani amaliyotda qo'llay olish, til o'zlashtirishdagi nuqsonlar tabiatini asoslash, til xususiyatlarini o'rganuvchilarning ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, yosh va individual belgilari kontekstida tadqiq qilish, tilni mukammal yoki qisman egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish, asoslash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim;
- o'rganilayotgan til strukturasini tahlil qilish, tillarni o'rganish metodikasi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq muammolarni aniqlash, turli o'quv sharoitlarida o'rganilayotgan tilni va til sohiblari idrok etgan olam lisoniy manzarasining o'zlashtirilish darajasini izohlash, tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani o'rganish va o'zlashtirishni analiz qilish **malakalarini** egallashi zarur;
- lingvodidaktika – ta'lim, o'quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o'zaro harakatlari mexanizmini tatbiq etish, milliy tilning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, til o'zlashtirishning sotsial-psixologik omillarini belgilash, usul hamda vositalarini takomillashtirish, metodlari, metodikasini ishlab chiqish **kompetensiyasiga** ega bo'lishi kerak.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Lingvodidaktika” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ma’ruza darsida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Lingvodidaktika” moduli o‘quv rejasidagi til nazariyasi va amaliyoti, metodikasi, pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalariga oid fanlar bilan bog‘liqlikda va uzviylikda o‘qitiladi.

Modulning andragogik ta’limdagi o‘rni

“Lingvodidaktika” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar til ta’limi metodikasining eng so‘nggi yutuqlari hamda yangi yo‘nalishlaridan xabardor bo‘ladilar, lingvodidaktika tamoyillari, jahon lingvodidaktikasidagi innovatsion yondashuvlar, tadqiqot metodlari, ilg‘or xorij tajribalari bilan tanishadilar, kompyuter lingvodidaktikasi, til o‘qitish dasturlaridan foydalanish kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.

Modul boyicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Lingvodidaktika – til o'rgatishning umumiy nazariyasi.	2	2	
2.	Lingvistika va pedagogika chegarasidagi muammolarni hal qilish – lingvodidaktikaning asosiy vazifasi sifatida.	2	2	
3.	Tillarni o'rganish metodikasi muammolari.	2	2	
4.	O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq muammolar.	2		2
5.	Til o'zlashtirishdagi nuqsonlar tabiatini asoslash.	2		2
6.	Kompyuter lingvodidaktikasi va ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.	2		2
7.	Til o'rgatish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Lingvodidaktika – til o‘rgatishning umumiy nazariyasi.

Lingvodidaktika – “ta’lim, o‘quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o‘zaro harakatlari mexanizmi”. Tillarning muvofiq universal va farqli jihatlarini aniqlash. O‘rganilayotgan til strukutrasini tahlil qilish. Lingvodidaktika mazmunini milliy til asoslarini o‘zlashtirish. Lingvodidaktika (lot. *lingua* “til”+grek. *didaktikos* “ta’lim”) – til o‘rgatishning umumiy nazariyasi. Termin akad. N.M. Shanskiy tomonidan tilni o‘quv maqsadida tavsiflash jarayonida kiritilgan. Tillarning muvofiq keluvchi va farqli jihatlarini tadqiq qilish, o‘rganilayotgan til strukutrasini tahlil qilish, lingvistika va pedagogika chegarasida turgan muammolarni hal qilish lingvodidaktikaning asosiy vazifasidir. Lingvodidaktika ona tili va xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini ifoda etish uchun qo‘llanmoqda. Lingvodidaktika va metodika terminlarini sinonim tarzda baholash hollari ham mavjud.

Lingvodidaktika rus tilshunosligida G.I. Bogin, I.I. Xaleeva, N.D. Galskova, G.I. Boginlar qarashlari asosida shakllangan yangi soha bo‘lib, o‘zida lingvistika fani mohiyatini namoyon etadi. I.I. Xaleeva “Lingvodidaktika” terminini “ta’lim, o‘quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o‘zaro harakatlari mexanizmi” deb ta’riflaydi.

O‘zbek tilshunosligida lingvodidaktika masalalari ilmiy adabiyotlarda boshqa mavzular atrofida yoritilgan bo‘lib, alohida yo‘nalish sifatida yaqin yillardan boshlab rivojlanmoqda.

2-mavzu: Lingvistika va pedagogika chegarasidagi muammolarni hal qilish – lingvodidaktikaning asosiy vazifasi sifatida. Tillarni o‘qitish metodikasining pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog‘liq ravishda rivojlanishi. Kasbiy lingvodidaktikaning genezisi va maqomi. Kasbiy lingvodidaktika shakllanishining nazariy muammolari. Kasbiy lingvodidaktikaning integrativ xususiyati. Lingvodidaktikaning obyekti va predmeti. Kasbiy lingvodidaktika qonuniyatlari. Lingvodidaktika tamoyillari

tushunchasi. Kasbiy lingvodidaktikaning aosisiy tamoyillari. Ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili. Kompetensiyaviy yondashuvni e'tiborga olish tamoyili. Internatsionallik tamoyili. Integrativlik (implitsitlik) tamoyili. Fanlararolik tamoyili. Til kompetensiyasini kompleks shakllantirish tamoyili. Kasbiy faoliyatga motivatsiya va yo'naltirishni shakllantirish tamoyili. Lingvistik tayyorgarlikning funksionallik tamoyili. Kasbiy faoliyatni modellashtirish. Kasbiy rivojlanishning individual belgilarini (antroposentrik xususiyatlarini) hisobga olish tamoyili.

3-mavzu: Tillarni o'rganish metodikasi muammolari. Til o'rganishni o'quv predmeti sifatida belgilash. Tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani o'rganish va o'zlashtirishni analiz qilish. Til o'zlashtirishdagi nuqsonlar tabiatini asoslash. Til xususiyatlarini o'rganuvchilarning ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, yosh va individual xususiyatlari kontekstida tadqiq qilish. Kasbiy lingvodidaktikaning yordamchi tamoyillari. Madaniyatlararo xususiyat tamoyili. Ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili. O'quv jarayonidagi avtonomlikni e'tiborga olish tamoyili. Ta'limning muammolilik tamoyili. Ta'lim mazmuni va texnologiyalarining xilma-xilligi tamoyili. Lingvistik tayyorgarlikning modulga asoslangan tamoyili. Til tayyorgarligining uzluksizligi tamoyili. Faol kommunikativlik tamoyili. Oliy ta'lim o'quv jarayonida lingvistik tayyorgarlik darajasining xilma-xillik tamoyili. Faoliyat materiallari hamda turlarining origalligi va autentikligi. Pedagogik jarayonning yaxlitlik tamoyili. Interaktivlik tamoyili. Selektivlik va elektivlik tamoyili. Nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyili. O'quv materiallarining adekvatlik tamoyili. O'quv jarayonini tashkil qilishda avtoritar va demokratik yondashuvni uyg'unlashtirish tamoyili. O'qituvchining kasbiy kompetentlik talablarini hisobga olish tamoyili.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg'ulot: O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq muammolari. Turli o'quv sharoitlarida o'rganilayotgan tilni va til sohiblari olamining lisoniy manzarasini o'zlashtirish darajasini izohlash. Tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani o'rganish va o'zlashtirishni analiz qilish. Tilni mukammal va nomukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish va asoslash. Kompyuter lingvodidaktikasi va ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Avvalo, nutqiy kompetensiyaga erishish uchun talab darajasidagi nutqiy ko'nikma va malakani egallash zarur. Nutqiy ko'nikma va malaka, asosan, umumta'lim jarayonida shakllantiriladi. Bunday ko'nikma va malakani shakllantirishda ijtimoiy-sotsial omillar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-sotsial omillar sifatida uzluksiz til ta'limi tizimining ishlab chiqilganligi, til siyosati, ona tilining milliy til va davlat tili sifatidagi mavqeyi, ta'lim jarayonini takomillashtirish texnikasi, texnologiyasi, vositalari, axborot texnologiyalaridan foydalanish, tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari, til va jamiyat munosabati, tilning ijtimoiy ko'rinishlari nazarda tutiladi.

2- mashg'ulot: Til o'zlashtirishdagi nuhsionlar tabiatini asoslash. Til xususiyatlarini o'rganuvchilarning ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, yosh va individual xususiyatlari kontekstida tadqiq qilish. Tilni mukammal va nomukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish va asoslash. Nutqiy kompetensiya tilning og'zaki va yozma imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirishni, talab darajasida so'zlash va fikrni yozma ravishda to'g'ri, aniq, mazmunli, ta'sirchan bayon etishni ifoda etadi. Nutqiy kompetensiyaga erishish uchun psixologik-individual omillarning o'rni ham ahamiyatli. Bunda lingvistik kompetensiya talablarini bajarish, til xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni kimga, qanday, qancha hajmda yetkazish, tinglovchi, o'quvchining yoshi, saviyasi, aql-idrokini e'tiborga olish, ona tilini o'zlashtirish ehtiyoji, ona tilini muloqot vositasi, shu bilan birga tafakkurni rivojlantirish omili sifatida baholash, nutqni to'g'ri ifoda

etish, tushunish, qabul qilish, anglash ko'nikmalari nazarda tutiladi. Nutqiy kompetensiyaga erishining ijtimoiy-sotsial hamda psixologik-individual omillari uzviy bog'liqdir.

3- mashg'ulot: Kompyuter lingvodidaktikasi va ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Kompyuter lingvodidaktikasi va ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ahamiyatlidir. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi, bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish, uni yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi. Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyadan tashqari to'plash vazifasini ham bajaradi. Tilning to'plash funksiyasi, shunchaki, ma'lumotlarni ajdodlardan avlodlarga, ma'lum masofadan muayyan obyektga yetkazishni nazarda tutmaydi, balki asrlar bo'yi jamlangan milliy qadriyatlarni o'zida ifoda etish darajasi bilan belgilanadi.

Til ijtimoiy-sotsial, biologik-fiziologik, psixologik hodisa sifatida madaniy qarashlarni, urf-odat, an'analarni o'zida aks ettiradi. Ona tilini milliy qadriyatlarni jamlovchi omil sifatida o'rganish tarixiy yondashuvlar, o'tmish fazilatlar haqida bilim beradi, yosh avlod qalbida milliy g'urur tuyg'ularini shakllantiradi.

4- mashg'ulot: Til o'rgatish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari. O'qituvchi lingvistik avtomatlarning ahamiyati. Keyingi yillarda lingvodidaktika kompyuter tizimida faol qo'llanmoqda. Lingvodidaktikaga doir anjumanlar tashkil qilinmoqda. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash, ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda multimedia darslarining yaratilishi asosiy yo'nalishga aylanib qolmoqda.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

masofadan o'qitish;

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko'chma mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish;

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- **Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).**

- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	– fikringizni bayon eting
S	– fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	– ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	– fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma‘nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma‘nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma‘noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma‘nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma‘no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki

bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
 - o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma‘no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;
 - belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
 - har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma‘noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma‘lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impresiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Venn diagrammasi” metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:


1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi

bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matnni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish

yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo'linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradi

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-MAVZU: LINGVODIDAKTIKA – TIL O‘RGATISHNING UMUMIY NAZARIYASI

REJA:

1. *“Lingvodidaktika” terminining mazmun-mohiyati*
2. *“Lingvodidaktika” modulining maqsadi, vazifalari*
3. *“Lingvodidaktika”da til ta’limining qadriyat sifatidagi talqini*

Tayanch so‘z va iboralar: *pedagogika, umumiy psixologiya, o‘qitish psixologiyasi, psixolingvistika, lingvodidaktika, didaktika metodologiyasi, ta’lim nazariyasi, ta’lim mazmuni, didaktika tamoyillari, shaxs omiliga yo‘naltirilganlik tamoyili, insonparvarlik tamoyili, yaxlitlik tamoyili, lingvomadaniy tayyorgarlik, aksiologik blok, davlat darajasidagi qadriyat, ijtimoiy qadriyat, shaxsiy qadriyat.*

“Lingvodidaktika” terminining mazmun-mohiyati.
Lingvodidaktika (lot. *lingua* “til”+ grek. *didaktikos* “ta’lim”) – til o‘rgatishning umumiy nazariyasi. Termin akad. N. M. Shanskiy tomonidan tilni o‘quv maqsadida tavsiflash jarayonida kiritilgan. Tillarning muvofiq keluvchi va farqli jihatlarini tadqiq qilish, o‘rganilayotgan til strukturasini tahlil qilish, lingvistika va pedagogika chegarasida turgan muammolarni hal qilish lingvodidaktikaning asosiy vazifasidir.

Lingvodidaktika ona tili va xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini ifoda etish uchun qo‘llanmoqda. Lingvodidaktika va metodika terminlarini sinonim tarzda baholash hollari ham mavjud.

Lingvodidaktika rus tilshunosligida G.I. Bogin, I.I. Xaleeva, N.D. Galskova, G.I Boginlar qarashlari asosida shakllangan yangi soha bo‘lib, o‘zida lingvistika fani mohiyatini namoyon etadi. I.I. Xaleeva “Lingvodidaktika” terminini “ta’lim, o‘quv mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni

sifatidagi individning o‘zaro harakatlari mexanizmi” deb ta’riflaydi.

O‘zbek tilshunosligida lingvodidaktika masalalari ilmiy adabiyotlarda boshqa mavzular atrofida yoritilgan bo‘lib, alohida yo‘nalish sifatida yaqin yillardan boshlab rivojlanmoqda.

“Lingvodidaktika” moduli til o‘qitish jarayoni, usullari, vositalari, metodlari, metodikasi va metodologiyasining umumiy nazariyasi sifatida talqin etiladi.

Lingvodidaktika termini *lingvo* hamda *didaktikos* so‘zlari ma’nosidan shakllangan umumiy tushunchani o‘z ichiga oladi.

Avvalo, *didaktika* haqida to‘xtalsak. Didaktika yun. *didaktikos* so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘rgatuvchi”, “ta’lim beruvchi” ma’nosini bildiradi. Didaktika pedagogikaning tarmog‘i hisoblanadi. Didaktika ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadigan yo‘nalish hisoblanadi. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda pedagogikaga doir adabiyotlarda qo‘llangan. Chex pedagogi Y. A. Komenskiy “Buyuk didaktika” asari (1657) da bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A. Disterveg “Nemis o‘qituvchilarini ma’lumotli qilishga rahbarlik” (1834-35) asarida didaktikaning pedagogikada ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida bo‘lim ekanligini ta’kidlagan. Pedagogikaga doir adabiyotlarda didaktika, uning mohiyati haqida bir qator fikr-mulohazalar bayon etildi. Shundan keyin didaktikaga ta’lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yuzaga keldi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktika ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida talqin etiladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarali usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy masalalaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo‘nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asos hamda metodologiyaning o‘rni katta. Didaktika metodologiyasi davrlar osha o‘zgarib kelgani kuzatiladi.

Didaktika pedagogika, umumiy psixologiya, o‘qitish psixologiyasi, psixolingvistika hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog‘liq. Bu fanlarning har biri bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to‘g‘risida alohida bilim beradi. Ta’lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur fanlar orasidagi integratsiya katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o‘qitish va uning mazmunini belgilash qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta’lim va tarbiya ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini ko‘rsatishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o‘qitish metodikasi maktab amaliyoti tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktika tamoyillari ta’lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O‘zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo‘lsa-da, ular ta’lim jarayonining qonuniyatlarini belgilash, uni tashkil etishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta’limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedegogikasi taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o‘qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko‘rsatib berilgan bo‘lsa, muallimning o‘zida ezgu insoniy sifatlar bo‘lmasa, bolalarda bunday xislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Alisher Navoiy asarlarida aks etgan. Azaldan sharqda muallimga nisbatan “aytganiga amal qilish” talabi qo‘yilgan.

Marg‘inoniy esa, bilimlarni o‘zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o‘rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O‘zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan,

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, M. Behbudiy, A. Avloniy, M. So‘fizoda kabi ma‘rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo‘ldi. XX asr boshlarida vujudga kelgan pedagogikasi milliy asos hamda jahon tajribasining so‘nggi yutuqlari negizida shakllangan bo‘lib, bugungi ta‘lim tizimni takomillashtirishda ham poydevor vazifasini o‘tashi lozim. Jadid pedagoglari ta‘lim-tarbiya borasida yuksak natijalarga erishdilar. Ular ta‘lim-tarbiyaning amaliy jihatlari bilangina emas, balki nazariy masalalari bilan ham shug‘ullandilar. Maktablar ochdilar, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratdilar. Faqatgina ona tili va adabiyot emas, tarix, geografiya sohasidagi ta‘lim jarayonini takomillashtirishga ham hissa qo‘shdilar.

“Lingvodidaktika” modulining maqsadi, vazifalari. Didaktikaning bir qator tamoyillari mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari borasida to‘xtalamiz. Negaki bu tamoyillar lingvodidaktika tamoyillarini belgilashda asos vazifasini o‘taydi.

Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta‘limning shaxs omiliga yo‘naltirilishidir. Mazkur tamoyil ta‘lim uchun bilim emas, balki o‘quvchi shaxsi asosiy qadriyat ekanligini anglatadi. Bu tamoyilga ko‘ra o‘quvchi shaxsini shakllantirishga urg‘u beriladi.

Insonparvarlik tamoyili o‘zbek didaktikasining asosiy talablaridan biri bo‘lib, ta‘lim jarayonida shaxs manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashish maqsadini qo‘yadi.

Milliy didaktika taraqqiyotini ta‘minlaydigan tamoyillaridan yana biri ta‘limning yaxlitligidir. Olamda narsa-hodisalarning bir butnligi, bir-biriga uzviy holda bog‘liqligi, uni o‘rganishda ham bir butunlikka, yaxlitlikka amal qilishni taqozo etadi. O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi o‘quv rejalarida ta‘limning asosiy yetti tarmog‘i belgilangan, o‘quv fanlari miqdorini zaruratga qarab o‘zgarib turish ko‘zda tutilgan.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning alohida, individual xususiyatlarini hisobga olish ham didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U o‘qitish jarayonini har bir o‘quvchiga xos xususiyatlarni ko‘zda tutgan holda tashkil

qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida o'sha muhitga xos jihatlar muhrlangan bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili ham didaktikaning zarur talablaridan biridir.

“Lingvodidaktika” tarkibidagi “lingvo” “til” ma'nosidagi so'z bo'lib, lingvodidaktika “til ta'limi” demakdir.

Lingvodidaktika, garchi ko'p hollarda chet tillarini o'rganish usullari hamda vositalariga urg'u berilgan bo'lsa-da, ona tili va o'zga tillarni o'qitishning mazmuni, vositalari hamda usullarini tahlil qiluvchi fandır. Lingvodidaktika – “ta'lim, o'quv jarayoni mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o'zaro faoliyati mexanizmi”ni o'rganuvchi, til o'qitish metodikasini pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog'liq ravishda talqin qiluvchi, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter dasturlari, o'qituvchi lingvistik avtomatlarning til ta'limidagi ahamiyatini yorituvchi amaliy soha.

“Lingvodidaktika” modulining asosiy maqsadi fan mazmunini milliy til asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirish, til o'qitish jarayoni, mazmuni, yo'nalishi, usul hamda vositalarini tahlil qilish, ta'lim subyekting imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-psixologik omillarini aniqlashdan iborat.

Tilni o'qitish maqsadida tavsiflash, tillar o'rtasidagi universalialar va farqli jihatlarni tadqiq qilish, o'rganilayotgan tilning tuzilishi va mazmunini, til minimumlarini aniqlash, til o'zlashtirishdagi nuqsonlar tabiatini o'rganish, til xususiyatlarini o'rganuvchilarning ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, yosh va individual belgilari kontekstida tadqiq qilish, tilni mukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish, tillarni o'rganish metodikasi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq muammolarni aniqlash, til o'rganishni o'quv predmeti sifatida belgilash, turli o'quv sharoitlarida o'rganilayotgan tilni va til

sohiblari idrok etgan olam lisoniy manzarasining o‘zlashtirilish darajasini izohlash, tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani anglash va o‘zlashtirishni analiz qilish modulning asosiy vazifalaridir. Ona tilini o‘zlashtirishda ham, chet tillarini o‘rganish jarayonida ham tilning grammatik xususiyatlari, grammatika negizida fonetik, leksik belgilari o‘rganiladi. Shu bois lingvistika va pedagogika chegarasidagi muammolarni hal qilish, o‘rganilayotgan til strukturasini tahlil qilish, tillarning universal va farqli jihatlarini aniqlash ham lingvodidaktikaning vazifalari hisoblanadi.

Qayd etilgan vazifalar lingvodidaktikaning asosiy masalalarini belgilab beradi. “Lingvodidaktika”ning obykti til o‘rgatish amaliyoti, deb belgilangan bo‘lsa, til o‘qitish va o‘rgatish jarayoni haqida umumlashtirilgan tasavvur berish, til o‘zlashtirishga zamon talablari va shaxs idroki, qobiliyatidan kelib chiqib yondashish fanning predmetini tashkil qiladi.

Fan doirasidagi asosiy masalalardan biri ta’lim doirasidagi o‘rganuvchilarning “lingvomadaniy tayyorgarlik” darajasiga asoslangan til siyosati kontekstida til o‘qitishning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishdir. O‘quvchilarning “Lingvomadaniy tayyorgarligi” ular tomonidan istalgan til va madaniyatni ona tili va chet tili sifatida o‘zlashtirishlari kirad. Til ta’limi ona tili va o‘zga tillarni va madaniyatlarni egallashadi. Ona tili va o‘zga tilni o‘zlashtirish doirasi metodlari, ta’lim tamoyillari, yondashuvlar o‘zaro farqlandi. Ona tili va o‘zga til ta’limida umumiy tamoyillar, metodlar mavjud. Lekin ta’lim maqsadi, metod va usullarning qo‘llanishi ona tilini va o‘zga tillarni o‘qitishda o‘zaro farqlanadi.

Lingvodidaktikada til ta’limi ko‘p hollarda xorijiy tillar sohasida ta’lim bilan sinonim tarzda qo‘llanadi.

“Lingvodidaktika”da til ta’limining qadriyat sifatidagi talqini. Til ta’limi qadriyat sifatida qaraladi.

B. S. Gershunskiy talqiniga ko‘ra til ta’limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokni namoyon qiladi:

- ✚ Til ta'limi davlat darajasidagi qadriyat sifatida;
- ✚ Til ta'limi ijtimoiy qadriyat sifatida;;
- ✚ Til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida¹;

Ko'rinadiki, mazkur aksiologik bloklar o'zaro uzviy bog'langan.

Mamlakatdagi til ta'limi taraqqiyotida davlat darajasidagi, ijtimoiy, shaxsiy manfaatlar uyg'unligi, nafaqat davlat, jamiyat, ta'lim oldida turgan sotsial-pedagogik muammollarni hal qilishda, balki sotsial-madaniy plandagi muammolar yechimida ham ahamiyatlidir.

Til ta'limini qadriyat sifatida anglash tilga dalat, jamiyat va shaxs munosabatini aks ettiruvchi ilmiy va amaliy faoliyatni ishlab chiqish va keng yoyishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Har qanday tilning o'rni uning jamiyat va dalatdagi statusi bilan belgilanadi. Til xalqaro aloqa-aralashuv vositasi bo'lishi mumkin. Bu o'rinda globallashuv doirasida keng tarqalgan, umuminsoniy madaniyat qirralarini aks ettiradigan, maksimal hajmda ijtimoiy funksiya bajarayotgan xalqaro tillar nazarda tutiladi. Ingliz, rus, nemis tillari shunday tillar guruhiga kiradi. Agar tildan ma'lum bir regiondagi bir qator davlatlar muloqot vositasi sifatida foydalansa (masalan, nemis tilida so'zlashuvchi davlatlardagi nemis tili) bu til davlatlararo til maqomini oladi. Til davlat tili va mahalliy til vazifasini bajarishi mumkin. Rossiyadagi rus tili millat vakillari o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi rasmiy til sifatida qaralsa, aniq bir regionda, oblastda yoki okrugda qo'llanadigan har qanday til (masalan, tatar, yoqut va boshqa milliy-davlat ta'limiga mos keluvchi boshqa tillar) lokal, ya'ni mahalliy til hisoblanadi. Hozirgi zamon shaxsining qadriyat nuqtai nazaridan shakllanishida ta'lim olishi va sotsial imkoniyatlarida global muloqot tillari muhi o'rin tutadi. Ammo bu lokal tillarni o'rganish kerak emas va jamiyat bu tillarini o'rganish uchun yetarlicha shart-sharoit yaratmaydi, degani emas.

Davlat va jamiyat bir tushuncha emas. Jamiyat zamonaviy tillarni o'rganishga muhtoj bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganishga

boʻlgan ehtiyojning ortib borayotgani bunga dalildir. Mamlakat ijtimoiy hayoti va uning yangi maqsadlar, gʻoyalar bilan bogʻliq boʻlgan dinamik taraqqiyoti bir yoki bir necha zamonaviy xorijiy tillarni oʻrganishni taqozo etmoqda. Tillarni, birinchi navbatda, xalqaro muloqot vositasi maqomidagi tillarni bilish shaxsga ijtimoiy hayotning keng imkoniyatlarini bermoda. Bugungi kunda hozigi bozor iqtisodiyoti va informatsion texnologiyalar taraqqiyoti davrida iqtisodiy va sotsial taraqqiyotning asosiy strategik omili sifatida maydonga chiqayotgan inson resurslari asosiy boylik boʻlib yuzaga kelmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Nutqiy kompetensiyaga nimalar kiradi?
2. Til bilishning qaysi darajasida fonetik oʻzgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tushuntira oladi, ohang va urgʻuning nutqdagi ahamiyatini, yozuv tamoyillarini izohlay oladi?
3. Lingvistik kompetensiyaga nimalar kiradi?
4. B1+ darajasida tinglab tushunish talablarini ayting.
5. B1 darajasida gapirish talablarini ayting.
6. A1+ darajasiga qanday talablar qoʻyiladi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Акопянц А.М. Прагматика и лингводидактика. – М., 2008.
2. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008.
3. Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калининский гос.унив., 1980
4. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapest, 2006.
5. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. Учебное пособие. Академия, 2009.
6. Дроздова Т.В. Профессиональная коммуникация: лингвистика, лингводидактика, межкультурное общение. Монография. Изд-во АГТУ, 2011.

7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
8. Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (Самарқанд шаҳри, 2011 йил, 25-26 март). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2011. – 270 б.

2-MAVZU: LINGVISTIKA VA PEDAGOGIKA CHEGARASIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISH – LINGVODIDAKTIKANING ASOSIY VAZIFASI SIFATIDA

REJA:

1. *Lingvodidaktikaning metodologik asoslari*
2. *Lingvodidaktika tamoyillarining metodologik g‘oyalarga mansubligi*
3. *Lingvodidaktika tayanch tamoyillarining ahamiyati*

Tayanch so‘z va iboralar: *ta’lim xarakteri, ta’lim mazmuni, didaktik tamoyillar, zamonaviy pedagogika, innovatsion ta’lim siyosati, umumiy tamoyillar, umumpedagogik tamoyillar, kasbiy lingvodidaktika tamoyillari, metodologik g‘oyalar, antroposentrizm g‘oyasi, ta’limning uzviyligi va uzluksizligi g‘oyasi, sinergetika g‘oyasi va ta’lim omillari integratsiyasi, ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili, kompetensiyaviy yondashuvni e’tiborga olish tamoyili, integrativlik (implitsitlik) tamoyili, til kompetensiyasini kompleks shakllantirish tamoyili, lingvistik tayyorgarlikning funktsionallik tamoyili, kasbiy faoliyatni modellashtirish, sotsium, sotsiotsentrik paradigma.*

Lingvodidaktikaning metodologik asoslari. Ta’lim xarakteri va mazmuni didaktik tamoyillarning amal qilish tartibi bilan belgilanadi. O‘qitish tamoyillarini tasnif qilish zamonaviy pedagogikaning markaziy masalalaridan biridir.

Innovatsion ta'lim siyosatining umumiy tamoyillari mavjud bo'lib, kasbiy lingvodidaktika tamoyillarining mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Lingvodidaktikaning spetsifik tamoyillari va unga asos bo'luvchi umumpedagogik tamoyillar farqlanadi.

A.M. Novikovaning innovatsion konsepsiyasi bo'yicha kasbiy lingvodidaktika quyidagi metodologik g'oyalarga asoslanishi lozim:

- 1) antroposentrizm g'oyasi;
- 2) ta'limning uzviyligi va uzluksizligi g'oyasi;
- 3) sinergetika g'oyasi va ta'lim omillari integratsiyasi.

A.K.Krupchenko, A.N.Kuznetsovlarning talqiniga ko'ra, antroposentrizm g'oyasiga "kasbiy faoliyatga yo'naltirish", madaniyatlararo muloqot, ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quv jarayonida avtonomlikni hisobga olish, professional rivojlanishning individual trayektoriyasi tamoyillari mansubdir.

Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi g'oyasiga professional rivojlanishdan kelib chiquvchi o'zga til ko'nikma, malakasiga xoslanish, kasbiy faoliyatni modellashtirish, tayyorgarlik mazmunining modulga asoslanishi, til tayyorgarligining uzluksizligi, faol kommunikativlik, oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoni diversifikatsiya sharoitida ta'limning ko'p darajaliligi tamoyillari. Sinergetika g'oyasi va ta'lim omillari integratsiyasi sotsial-kasbiy muhitni, integrativlik (implitsitlik)ni hisobga olish tamoyili, kasbiy kompetentlikni shakllantirish tamoyili, ta'limning muammoli ekanligi, ta'lim mazmuni va texnologiyasining variativligi, faoliyat turlari va materiallarning autentikligi, interaktivlik, nutqiy mahorat rivoji bilan bog'liq bo'lgan selektivlik va o'quv materiallarining adekvatligi tamoyillari mansubdir.

Lingvodidaktika tamoyillarining metodologik g'oyalarga mansubligi. Kasbiy lingvodidaktikaning asosiy tamoyillari: ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili. Kompetensiyaviy yondashuvni e'tiborga olish tamoyili. Internatsionallik tamoyili. Integrativlik (implitsitlik) tamoyili. Fanlararolik

tamoyili. Til kompetensiyasini kompleks shakllantirish tamoyili. Kasbiy faoliyatga motivatsiya va yo'naltirishni shakllantirish tamoyili. Lingvistik tayyorgarlikning funkcionallik tamoyili. Kasbiy faoliyatni modellashtirish. Kasbiy rivojanishning individual belgilarini (antoroposentrik xususiyatlarini) hisobga olish tamoyili.

Ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili.

Ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyiliga ko'ra quyidagi qadriyatlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sotsiumdagi effektivlik, uyg'un, o'zaro manfaatli, estetik bilish nazarda tutilgan sotsial munosabatlar tizimini yaratish, qo'llab-quvvatlash masalaga yangicha yondashuvni talab etadi.

Sotsiosentrik paradigmaga asosan, hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalar quyidagilar:

- 1) sotsium subyektlarining namoyon bo'lishi;
- 2) xarakterning namoyon bo'lishi va uning pedagogik jarayonga ta'siri;
- 3) pedagogik jarayonda ishtirok etish darajasini ko'tarish yoki tushirishi mumkin bo'lgan vositalarning namoyon bo'lishi.

Sotsium subyektlari:

talabalar;

o'qituvchilar;

ta'lim tizimi;

oliy o'quv yurtlari administratsiyasi;

jamoat;

kasbiy hamkorlik;

aniq ish beruvchilar;

ishtirokchilarning ota-onasi;

nashriyotlar;

ta'lim berish bilan bog'liq tashkilotlar;

metodistlar (dastur va o'quv materiallarini tayyorlovchilar);

davlat (me'yoriy hujjatlar doirasida davlat hokimiyati organlari qiyofasida);

tayyorlov dasturlari homiylari.

Sotsial-kasbiy yondashuv nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashilganda mehnatga tayyorlikni shakllantirish mezonlari quyidagicha:

- 1) zarur bilim, ko'nikma, malaka; 2) ta'lim va o'quv mehnatiga munosabat;
- 3) rivojlangan, mustaqil, ijodiy tafakkur; 4) sotsium shaxsi oldida turgan vazifalarni tushunish; 5) faoliyatning motivlarini anglash, o'zining manfaatlarini, moslashuvchanligini, qobiliyatini, imkoniyatlarini aniq tushunish, moslashuvchanlik;
- 6) shaxsiy va jamiyat maqsadlarini umumlashtirish. Bu o'rinda shaxsning faol mehnat hayotiga tayyorgarligi ishlab chiqarish va ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan fazilatlar sistemasi orqali ifodalangan².

Kompetensiyaviy yondashuvni e'tiborga olish tamoyili. "Kompetensiya" va "kompetensiyaviy yondashuv" atamalarining talqini.

"Competence" "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

"Kompetentlik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuyining amalda qo'llanishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlarini;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;

²Крупченко А.К., Кузнецов А.Н. основы профессиональной лингводидактики.-М.,2015.-С.45-65.

- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo‘lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta‘minlovchi bilim, ko‘nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o‘quv, bilim, tajribalar majmuyi;
- shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan emotsional iroda kuchi.

Lingvodidaktika tayanch tamoyillarining ahamiyati. Kompetensiyalarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

Lingvistik kompetensiya – til materialini (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya – so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Pragmatik kompetensiya – o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatdan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi.

Shuni aytish joizki, “kompetentlik” tushunchasi bilan birgalikda, uning sinonimi sifatida “malakalar bazasi” ishlatilgan hollar ham mavjud. T. Oskarson tomonidan mana shunday malakalar bazasining ro‘yxati tuzilgan bo‘lib uni kompetensiya sifatida tushuntirish mumkin. B. Oskarson fikriga ko‘ra, ular keng qamrovli, maxsus kasbiy xislatlarga qo‘shimcha ravishda rivojlanadi. Bunday

tayanch kompetensiyalar, shuningdek, jamoada samarali ishlash, rejalashtirish, muammolarni yechish, ijod qilish, peshqadam bo‘lish, tadbirkorlik, tashkilotchilik va kommunikativ ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar quyidagicha:

O‘rganish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + tajribadan foydali biror narsani chiqarish;
- + o‘z bilimlari orasidagi o‘zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblash;
- + shaxsiy o‘rganish usullarini tashkil qilish (o‘rnatish);
- + muammolarni yecha olish.

Izlash kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish;
- + turli ma’lumotlar bazasini izlash;
- + tevarak-atrofdan surishtirish;
- + ekspertdan maslahat olish;
- + axborot olish;
- + hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

O‘ylash kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + o‘tgan va hozirgi voqealar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topish;
- + jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashish;
- + murakkablik va o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolishiga qarshi turish;
- + bahslashuvlarda o‘z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo‘lish;
- + o‘qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;
- + salomatlik, iste’mol qilish hamda tasviriy san’at va adabiy asarlarni baholay bilish.

Hamkorlik qilish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;

- + qarorlar qabul qilish – anglashilmovchilik va kelishmovchiliklarni bartaraf etish;
- + kelisha olish;
- + shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Ishga kirishish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + loyihada qatnashish;
- + javobgarlikni olish;
- + guruhga yoki jamoaga kirish hamda o‘z hissasini qo‘shish;
- + hamkorlikni isbotlash;
- + o‘z ishini tashkil qila bilish;
- + hisoblash va modellashtirish asboblariidan foydalana bilish.

Ko‘nikish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:

- + yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- + tez o‘zgarishlar oldida moslashuvchanlikni isbotlash;
- + yangi yechimlarni topa bilish.

Niderlandiyada o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi yaratilgan:

- + kelajakka intilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni mo‘ljalladigan strategik kompetensiya;
- + o‘rganilayotgan o‘quv fani xususiyatiga doir bo‘lgan bilim va malakalar bilan bog‘liq predmet kompetensiyalari; mazmuni jihatidan boshqarish malakalaridan iborat bo‘lgan metodik kompetensiya;
- + asosiy tarkibi hamkorlik malakalari, tanqidni qabul qilish, qayta aloqa o‘rnatish; axloqiy-madaniy kompetensiya bo‘lgan ijtimoiy kompetensiya. Kasbiy munosabatlar, motivatsiya, natijaga erishish uchun tayyor bo‘lish va o‘quv malakalari, refleksiyaning rivojlantirishni belgilaydigan o‘quv kompetensiyalari shu guruhga mansubdir.

Avstriya ta’lim tizimida quyidagi tayanch kompetensiyalar ajralgan:

- + shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyalar;

✚ ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalar.

Ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga quyidagilar kiritilgan:

- “Til va kommunikativlik”;
- “Ijod va dizayn”;
- “Inson va jamiyat”;
- “Salomatlik va harakat”;
- “Tabiat va texnika”.

Ijtimoiy kompetensiyalarga kommunikativlik, jamoada ishlay olish, kelishmovchiliklarni bartaraf qila olish, boshqalarni tushunish, kirishimlilik, ijtimoiy javobgarlik kiradi.

Britaniya maktablarida oltita tayanch kompetensiya asos sifatida olingan. Ularni shartli ravishda bir nechta guruhga birlashtirish mumkin. Asosiy kompetensiyalar:

- ✚ muloqotga kirishish;
- ✚ hisob-kitob yuritish;
- ✚ axborot savodxonligi.

Keng ko‘lamli tayanch kompetensiyalar: boshqalar bilan ishlay olish; o‘qish va takomillashish malakasi; turli masala va muammolarni yechish ko‘nikmasi.

AQSHda 1980-yillardan boshlab ta‘lim standartlari ishlatila boshlagan. AQSH maktablarida yil yakunini baholashda shuningdek, bitiruvchi sinflarda o‘quvchilarning bitirish imtihonlarida standartlashtirilgan imtihon (test)lardan foydalaniladi. Amerikada ta‘lim tizimi markazlashtirilmagan. Shunga ko‘ra, ta‘limga doir ko‘pgina masalalar mahalliy hokimiyat tomonidan qabul qilinadi. Har bir shtat tomonidan ta‘lim standartlari va dasturlari odatda mustaqil ravishda qabul qilinadi. Har bir shtatdagi qonun chiqaruvchi majlis tomonidan maktablar uchun bilimlarning umumiy minimal darajasi belgilab qo‘yilgan.

Germaniyada 1970-yilda PISA tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning butun mamlakat bo‘yicha past natija ko‘rsatganidan so‘ng ta‘lim standartlari va dasturlari ishlab chiqila boshladi. Nemislarning standarti o‘quvchilarda tayanch malakalar va

kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv dasturi ortiqcha bilimlar bilan to'ldirib tashlanmagan. 2004-yildan boshlab maktab ta'limi standartlari majburiy hisoblanadi.

Rossiyada ta'lim standartlari haqidagi tushuncha 1992-yilda Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganidan so'ng kirib keldi. Qonunning 7-bandi ta'lim standartlariga bag'ishlangan. Qonunning dastlabki tahririda umumta'lim standartlari haqidagi qonun Rossiya Federatsiyasining Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan. Lekin 1993-yilda Konstitutsiya qabul qilinishi munosabati bilan bu nizom bekor qilinib, ta'lim standartlarini qabul qilish funksiyasi ijro qiluvchi hokimiyat organlariga beriladi. 1992-yilda Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ishlab chiquvchilar tomonidan tayyorlangan ta'lim standarti tahririda, aniqrog'i uning federal komponentasi beshta elementdan iborat bo'lgan:

- ✚ Ta'limning har bir bosqichi maqsadi.
- ✚ Asosiy ta'lim dasturlarining tayanch mazmuniga qo'yilgan talablar.
- ✚ Auditoriya o'quv yuklamasining yo'l qo'yilgan chegara hajmi.
- ✚ Maktabning turli bosqichlarini bitiruvchi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar³

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O'qish va yozish jarayonini psixolingvistik tahlil qilish, yozuv orqali nutqiy faoliyatni voqelantirish masalalari kimlarning tadqiqotlarida yoritilgan?
2. Yozma va og'zaki nutqni turli aspektlarda tadqiq qilgan olimlar kimlar?
3. Qanday jarayon leksemalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish asosida kechadi?
4. Qaysi jarayon fonematik sathni, ya'ni alohida-alohida tovushlarni topish, ularni qarama-qarshi qo'yish, alohida tovushlarni harflarda kodlash, alohida tovush va harflardan butun so'z hosil qilishni aks ettiradi?

³ Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi.-Toshkent: Navro'z,2019. -B.98-100.

5. “Yozma nutq og‘zaki nutqqa nisbatan butun. Og‘zaki nutqdagi tovushli shakl avtomatlashgan, yozuv o‘qish jarayonida analiz va sintez jarayoni yuz beradi. Sintaktik frazalar yozma nutqda xuddi uning fonemalari singari aks etadi.” Ushbu fikrlar muallifi kim?
6. “Yoyiq grammatika” nutqning qaysi ko‘rinishiga xos?
7. Yozma nutq qachon shakllanadi?
8. Yozma nutqning funksiyalari og‘zaki nutqdan ko‘ra kengroq. Uning asosiy funksiyalaridan biri – bu...
9. Nutqning qaysi shaklini bolalarda shakllantirish qiyinroq kechadi?
10. Yozma nutqni har tomonlama tadqiq qilgan olim kim?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Крупченко А.К., Кузнецов А.Н.. Основы профессиональной лингводидактики. Монография.-М.: Академия, 2015.
2. Лингвистические парадигмы и лингводидактика: материалы Международной научно-практической конференции.-Иркутск, 13-15 июня 2007 года.
3. Миролубов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. - М: СТУПЕНИ, ИНФРА-М, 2002.
4. Zamonaviy o‘zbek tili. Sintaksis. Darslik.—Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001.
6. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014.

3-MAVZU:

TILLARNI O‘RGANISH METODIKASI MUAMMOLARI

REJA:

1. *Ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili*
2. *Ta’lim jarayonida selektivlik va elektivlik tamoyili*
3. *Nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyili*

Tayanch so‘z va iboralar: *yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili, selektivlik va elektivlik tamoyili, nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyili, o‘quv jarayonidagi avtonomlikni shakllantirish, ta’limning muammolilik tamoyili, o‘quv jarayonini tashkil qilishda avtoritar va demokratik yondashuvni uyg‘unlashtirish tamoyili, o‘qituvchining kasbiy kompetentlik talablarini hisobga olish tamoyili.*

Ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili

Ta’limning o‘quvchi yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o‘quvchilarga individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish o‘quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma’naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo‘yilayotgan talablar yoki ta’limning tashkiliy tuzilishi o‘quvchilarning yoshi, imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o‘quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o‘quvchilarning murakkab ichki dunyosini o‘rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va boshqa sharoitlarni aniqlashni talab etadi. Kichik guruhlar bilan ishlash asosida tashkil etiladigan darslarda ham o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish o‘ta muhim. Chunki o‘quvchiga taqdim etilayotgan barcha o‘quv materiallari va topshiriqlar ularning o‘zlashtirishlari uchun mos kelishi kerak. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari uchun tayyorlanayotgan savol va topshiriqlar mazmunida oddiylik, ma’lum darajada o‘yinga moyillik ustun bo‘lishi hisobga olinishi zarur.

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda real o‘quv

imkoniyatlarini hisobga olish tamoyiliga qat'iy amal qilish quyidagi afzalliklarga ega:

✓ o'qituvchi tomonidan tanlanadigan o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga muvofiqlashtirish imkoniyati vujudga keladi. O'qituvchi o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda darslik va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanadi;

✓ o'quv imkoniyatini aniqlash o'zbek tili o'qitishning shakl, metod va usullarini to'g'ri belgilashga, maqsadga muvofiq keladigan dars turini tanlashga imkon beradi;

✓ o'quv imkoniyatini bilish tabaqalashtirilgan ta'limdan foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki har bir o'quvchining o'quv imkoniyatini bilmay turib, o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirish mumkin emas. Bolaning o'quv imkoniyatiga mos tushadigan topshiriq esa uni bajarishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi; bilishga bo'lgan ishonchini orttiradi; sinf yoki guruhdagi o'quvchilarning faollik ko'rsatishlarini ta'minlaydi; sinf yoki guruhdagi barcha o'quvchilarning, deyarli, bir vaqtda topshiriqni bajarishlariga shart-sharoit yaratadi;

✓ o'quv imkoniyatlarini hisobga olish o'zbek tili darslarida bolani tarbiyalash va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Imkoniyatga muvofiq keladigan topshiriq shaxsiy-ruhiy xususiyatlar: iroda, qobiliyat, xotira, ijodkorlikni tarbiyalaydi. O'zbek tili darslarini o'quvchilarning imkoniyatlari doirasida tashkil etish ularning o'z kuchlaridan foydalanishlarini ta'minlaydi.

Ta'lim subyektlari o'rtasida tanlov har xil bo'lishi mumkin. Selektivlik o'qituvchilar, metodistlar, tadqiqotchilar va boshqa mutaxassislarining til mazmuni loyihasi sohasidagi qarorlarini, tanlovlarini namoyon qiladi. Elektivlik ma'lum darajada ta'lim oluvchilar faoliyati tavsifiga mansubdir.

Ta'lim olish tizimli bo'lishi kerak va ta'lim oluvchilarning til o'rganishlarida va undan foydalanishlaridagi asosiy faoliyatini qamrab olishi lozim.

Kasbiy lingvodidaktikaning yordamchi tamoyillari quyidagilar:

- madaniyatlararo xususiyat tamoyili;
- ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili;
- o‘quv jarayonidagi avtonomlikni e‘tiborga olish tamoyili;
- ta‘limning muammolilik tamoyili;
- ta‘lim mazmuni va texnologiyalarining xilma-xilligi tamoyili;
- lingvistik tayyorgarlikning modulga asoslangan tamoyili;
- til tayyorgarligining uzluksizligi tamoyili;
- faol kommunikativlik tamoyili;
- oliy ta‘lim o‘quv jarayonida lingvistik tayyorgarlik darajasining xilma-xillik tamoyili;
- faoliyat materiallari hamda turlarining originalligi va autentikligi;
- pedagogik jarayonning yaxlitlik tamoyili;
- interaktivlik tamoyili;
- selektivlik va elektivlik tamoyili;
- nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyili;
- o‘quv materiallarining adekvatlik tamoyili;
- o‘quv jarayonini tashkil qilishda avtoritar va demokratik yondashuvni uyg‘unlashtirish tamoyili;
- o‘qituvchining kasbiy kompetentlik talablarini hisobga olish tamoyili.

Ta‘lim jarayonida selektivlik va elektivlik tamoyili

Kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillaridan biri bo‘lgan selektivlik prinsipi lingvodidaktikada muhim o‘rin tutadi. Selektivlikning asosiy mohiyati mutaxassislariga tilni noldan boshlab emas, til ta‘limining barcha metodlari, aspektlari, komponentlari til kompetensiyasiga ega mutaxassisni maqsadga yo‘naltirilgan tanlov seleksiyalariga ajratib o‘qitishga yo‘naltirilishidir.

Lingvistik materialni maqsadli tahlil qilish ta‘limning aralash bosqichlarini chog‘ishtirish va analiz qilish yo‘li bilan reallashadi. Tanlab olingan material kasbiy nutqdagi funksiyasiga qarab tizimlashtiriladi.

Leksik minimumni tanlashda umumiste‘mol leksikasi, maxsus leksika va

terminlarni obyekt sifatida olish lozim bo'ladi. O'quvchi aktiv va passiv grammatik minimumlarni to'liq o'zlashtirishi talab etiladi.

Selektivlik tamoyilini muayyan maxsus, spetsifik til o'rgatishning funksional talablariga javob beradigan materialni tanlash deb qarash mumkin. O'quv yurtlarida bilimning kompleks, integrativ holda berilishi talab qilinayotgan hozirgi vaqtda muayyan hayotiy va kasbiy muammolarni bartaraf etishda kasbiy ta'limning xilma-xil muammolari, masalalari, vaziyatlari, shakllari va metodlaridan til o'rganuvchining shaxsiy traektoriyasida zarur bo'lganlarini tanlab olish imkoniyatini beruvchi selektivlik ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Elektivlikning mohiyati ishtirokchilarga mazmun, shakl, usul, muddat, vaqt va ta'lim olish joyini tanlashda muayyan erkinlik berilishida namoyon bo'ladi.

Elektivlik tamoyilining amaliyotga tatbiqi talabalarning o'quv avtonomiyasini hosil qilishni ta'minlaydi.

Nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyili

Nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyilini "Til – me'yor – nutq mutanosibligi" tamoyili sifatida olish ham mumkin.

Tilning asosiy qonun-qoidalari, zarur birliklarini (nutq tovushlari, qo'shimchalar, so'zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini o'quvchi jamiyatdan tayyor holda oladi. Hali o'zbek tilini maxsus o'quv fani sifatida o'rganmagan shaxs ham so'zlarni o'zaro biriktirib, gap tuza oladi. U o'z fikrini boshqalarga bayon qiladi va o'z g'alar fikrini tushunadi. Maktabda o'zbek tilidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchining o'zida mavjud bo'lgan ana shu imkoniyatlarini kengaytiradi; ya'ni uni o'zbek adabiy tilining boy xazinasiga olib kirish orqali fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatadi.

Til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ichki imkoniyat tilda behad ko'p va xilma-xildir.

Me'yor tilning ichki imkoniyatlarini o'quvchi ongiga singdiruvchi omildir. Boshqacha qilib aytganda, me'yor nutqni ro'yobga chiqarish maqsadida til

imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasi sanaladi. Me'yorning oliy ko'rinishi milliy, adabiy til uslublari, mezonlaridir. Milliy, adabiy til me'yorlaridan xabardor o'quvchigina o'zbek tili ta'limining so'nggi natijasi hisoblangan matn yaratishga qodirdir. Nutq til imkoniyatlarining yuzaga chiqishi, voqealanishidir. Tilning boy ichki imkoniyatlaridan xabardor shaxs o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bimalol bayon qila oladi.

O'zbek tili ta'limida **“til – me'yor – nutq”** tushunchalari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularni ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Dars mashg'ulotlarida bu tushunchalar o'rtasida mutanosiblik bo'lmasa, o'zbek tili ta'limining asosiy maqsadi – nutq taraqqiyoti ortda qoladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Milliy va umummadaniy kompetensiya nimani nazarda tutadi?
2. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u qanday namoyon bo'ladi?
3. Tilga “tashqi” jihatdan yondashilganda, u nimani ko'rsatadi?
4. Antropologiya qanady turlarga ajraladi.
5. ...madaniy antropologiyaning predmeti sifatida millat, sinf, guruhlarning muayyan davrdagi hayot tarzini tarkib toptiradigan kishilik jamiyati faoliyatining natijalari yig'indisidir. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
6. insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini o'rganadi, til va madaniyatning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
7. Qaysi fan insonning shakllanishi va rivojlanishini o'rganadi?
8. Nima ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi?
9. Insoniyat madaniy rivojlanishining umumiy muammolarini o'rganuvchi, o'zida barcha gumanitar fanlar bilimlarini mujassamlashtiruvchi, insonni “Inson” qiluvchi va uni hayvonot dunyosidan ajratuvchi noyob jihatlarini tadqiq etuvchi favqulodda keng fundamental fan –bu....

10. So‘nggi yillarda til va madaniyat masalalarini qaysi fani atroflicha o‘rganishga kirishdi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Акопянц А.М. Прагматика и лингводидактика. -М., 2008.
2. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. –М.: Флинта, 2008.
3. Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калининский гос.унив., 1980
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001.
5. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014.
6. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
7. Тил системаси ва hozirgi zamон лингводидактикаси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (Самарқанд шаҳри, 2011 йил, 25-26 март). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2011. – 270 б.
8. Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи (подготовка переводчиков): Моногр.– М.: Высш. школа, 1989.
9. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. Юлдашев

The image features two stacks of books, one on the left and one on the right, set against a bright blue sky with radiating light rays. The books are stacked in a slightly irregular manner, with some pages visible. The overall composition is symmetrical and visually appealing.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT:

O‘QITUVCHI FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

O‘qituvchi, ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining vazifasi murakkab va mas’uliyatlidir. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, bilimni oshirib borishi, faoliyatini takomillashtirishi talab qilinadi. O‘qituvchi faoliyati savodxonlik darajasini oshirishda muhimdir. O‘qituvchilar savodini ta’minlash uchun o‘qituvchining o‘zi og‘zaki va yozma nutq me’yorlarini o‘zlashtirishi, anglashi, xatolarga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Attestatsiya, tekshiruv jarayonlari ona tili va adabiyot o‘qituvchilari faoliyatida muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holatning sababi ona tili ta’limi jarayonining tizimli tahlili asosida ma’lum bo‘ladi. Savodsizlik ildizlarini oliy ta’lim muassasasidan emas, umumta’lim jarayoni, boshlang‘ich ta’lim asoslaridan izlash kerak bo‘ladi.

Sohaning yetuk mutaxassislarini tayyorlash boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi bilim, ko‘nikma, malaka sifati bilan bog‘liq. Savodxonlikni ta’minlash keyingi bosqichlardagi jiddiy nazoratni talb qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining og‘zaki va yozma nutq savodxonligi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish):

A1

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi; matnni tushunib o‘qiy oladi; og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qiladi; 65 – 70 so‘zdan iborat diktant yoza oladi; xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi, husnixatga amal qiladi; imlo, tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qiladi; do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

A1+

Sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi; matn mazmunini tushunib, ifodali o‘qiy oladi; 70 – 75 so‘zdan iborat diktant yoza oladi; 8 – 10 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

A2

Tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; so‘z, ibora va atama (termin)larning ma’nosini tushunib, to‘g‘ri o‘qiy oladi; so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi; 140 – 160 so‘zdan iborat diktant yoza oladi, 20 – 25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi, bayonga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi; matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana oladi; husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi; ish qog‘ozlarini (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimayi hol, e’lonlarni) yoza oladi.

A2+

Ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushuna oladi; turli janrga oid matnlardagi so‘z, ibora va atama (termin)larning ma’nosini tushunib, to‘g‘ri va ravon o‘qiy oladi; tanish mavzuda taqdimot qila oladi; 160 – 180 so‘zdan iborat diktant yoza oladi; o‘qib eshittirilgan matn yoki mavzu asosida 26 – 30 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yarata oladi; ish qog‘ozlarini (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimayi hol, e’lonlarni) yoza oladi.

B1

Tinglab tushunish: sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi.

Gapirish: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri tuyadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi.

Yozish: fikr ifodasi matnidan izchil, tinish belgilari, nutqda kirish va

kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalari, fikr ifodasida qo‘shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi. Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi. 30 – 35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi.

B1+

Tinglab tushunish: ilmiy manbalardagi o‘rtacha murakkablikdagi ma’lumotlarni tinglab tushunadi. Nutq uslubiga xos xususiyatlarni anglaydi.

Gapirish: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali hamda ta’sirchan o‘qiy oladi, ulardagi uslubiy vositalarning ahamiyatini his qiladi

Yozish: fikr ifodasida qo‘shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi, bir fikrni turli shaklda ifodalay oladi. Ijodiy va badiiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Ixtisoslikka oid matn tuza oladi, bunda til birliklaridan o‘rinli foydalanadi. 35 – 40 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

A1

o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qiladi; mavzuga oid yangi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

so‘zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to‘g‘ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi.

A2

Talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi

hodisalardan o‘rinli foydalana oladi; o‘zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo‘llay oladi; fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi.

A2+

Tovushlar talaffuzida orfoepik me‘yorlarga amal qila oladi; leksik birliklarning ma‘nosini farqlashda lug‘atlardan unumli foydalana oladi.

Lingvistik kompetensiya (fonetika, leksika, grammatika):

B1, B1+

Fonetika: fonemalar tasnifi va uslubiyatini tushuna oladi, fonetik o‘zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tahlil qila oladi, ohang va urg‘uni nutqda qo‘llay oladi.

Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalana oladi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanish, boyish manbalarini izohlay oladi.

Grammatika: so‘z turkumlari, undov, modal va taqlid so‘zlar, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izohlay oladi. So‘z birikmasi, gap va uning grammatik belgilari, dialogik nutq belgilari, gap bo‘lagining tiplari, soda va qo‘shma gaplar ma‘nodoshligini, sintaktik qurilmalarni, ko‘chirma gap, matnning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o‘rinli foydalana oladi.

B1+

Fonetika: fonetik o‘zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tushuntira oladi, ohang va urg‘uning nutqdagi ahamiyatini, yozuv tamoyillarini izohlay oladi.

Leksika: o‘zbek tili leksikasining rivojlanish, boyish manbalarini tushuntira oladi.

Grammatika: so‘z turkumlari, gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlarini tushunib, izohlay oladi. Nutqda grammatik hamda sintaktik birliklardan o‘rinli foydalanadi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1-savol: “Kompetensiya” so‘zining ma’nosini izohlab, tushuntiring.

2-savol: Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishidan maqsad nima?

Ushbu she’rning nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rnini yoriting.

She’riyat muxlislariga

Erta tong shamoli sochlarin yoyib

Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen,

Aytadir: “Bir ko‘rib, yo‘limdan ozib,

Tog‘u toshlar ichra istab yuramen”

Bir ko‘rdim men uni, shunchalar go‘zal-

Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

Ul ketgach, kun chiqar yorug‘lik sochib

Undan-da so‘rayman sening to‘g‘ringda:

Ul-da uyatidan bekinib qochib,

Aytadir: “Bir ko‘rdim tushdamas, o‘ngda”

Men o‘ngda ko‘rganda shunchalar go‘zal-

Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

Men yo‘qsil na bo‘lib uni suyibman.

Uning-chun yonibman, yonib kuyibman

Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yibman

Men suyib, men suyib kimni suyibman

Men suygan suyukli shunchalar go‘zal –

Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

(Cho‘lpon)

3-savol: O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ishlab chiqilgan tayanch kompetensiyalar haqida nima bilasiz?

4. *O‘zingiz yoqtirgan ijodkorning asaridan matn tanlang va nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyatini yoriting.*

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

9. Акопянц А.М. Прагматика и лингводидактика. – М., 2008.
10. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008.
11. Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калининский гос.унив., 1980
12. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapest, 2006.
13. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. Учебное пособие. Академия, 2009.
14. Дроздова Т.В. Профессиональная коммуникация: лингвистика, лингводидактика, межкультурное общение. Монография. Изд-во АГТУ, 2011.
15. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
16. Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (Самарқанд шаҳри, 2011 йил, 25-26 март). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2011. – 270 б.

2-AMALIY MASHG‘ULOT:

TIL O‘ZLASHTIRISHDAGI NUQSONLAR TABIATINI ASOSLASH

Yozma nutq xususiyatlarining to‘liq tavsifi, psixologik va psixolingvistik jihatlari L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, L.S.Svetkova, A.A.Leontev tadqiqotlarida yoritilgan. O‘qish va yozish jarayonini psixolingvistik tahlil qilish, yozuv orqali nutqiy faoliyatni voqelantirish masalalari R.I.Lalayeva, G.V.Babina, S.Y.Gorbunova tadqiqotlarida yoritilgan. Yozma nutq o‘zining kommunikativ tabiatiga ko‘ra, monologik nutqqa o‘xshaydi. U o‘z kelib chiqishiga ko‘ra insoniyatning uzoq ming yillik tarixiga borib taqaladi. Yozuv taraqqiyoti tarixi

shuni ko'rsatadiki, yozma nutq insonning sun'iy xotirasi xususiyatlarini aks ettiradi va sodda axborot tashuvchi belgilardan yuzaga keladi. Dastavval, yozma nutqga og'zaki nutqning bir bo'lagi sifatida qaralgan. Yozma va og'zaki nutqni turli aspektlarda tadqiq qilish turli izlanishlarning asosi bo'lib kelmoqda. A.R.Luriya, R.E.Levina, R.N.Lalayeva, L.S.Svetkova va boshqalarning ishlari bunga yorqin misoldir. Yozma nutq og'zaki nutqdan o'sib chiqqanligiga qaramay uning grafik belgilaridagi ko'rinishi hozirgi kunda umumtarixiy taraqqiyot natijasida farqlanadi va u nutqiy faoliyatning alohida mustaqil shakli hisoblanadi. A.R.Luriya ta'kidlashicha, yozma nutq hech qanday qo'shimcha tasvir vositalariga ega emas".⁴ Bu jihatdan u hech qanday suhbatdoshni ko'zda tutmasligini ko'rsatadi. Fikrni nutqiy jumalarda kodlash, yozma nutqda ong ostida kechadi. Yozma nutq hech qanday qo'shimcha vositalarga, ya'ni jest, mimikalarga ega bo'lmasa-da, o'zida grammatik to'liqlikni aks ettiradi va bu to'liqlik uning tushunarligini ta'minlaydi. Shu tarzda yozma nutqda aks etgan barcha axborot grammatik til vositalari yordamida amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, yozma nutq maksimal darajada sinsemantik, til vositalari esa aytilgan xabarni yetkazishga yordam beradi. Yozma nutqni tushunish og'zaki nutqni tushunishdan keskin farq qiladi. Yozma nutqni har doim qayta o'qish, aniqlashtirish mumkin, yozma nutqda bunday imkoniyat yo'q.⁵

Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir psixologik farqi ularning kelib chiqishi, ya'ni ontogenezidir. L.S.Vigotskiy yozma nutq og'zaki nutq bilan chambarchas bog'liqligini yozadi, biroq yozma nutq bosib o'tgan yo'l og'zaki nutq tarixida kuzatilmaydi. Yozma nutq shunchaki og'zaki nutqning tarjimasi, yozish ko'nikmasini va texnikasini egallashdir".⁶ A.R.Luriya ta'kidlashicha, og'zaki nutq

⁴Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. Изд. 3-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ» 2009. – 270 с.

⁵Лурия А.Р. Письмо и реч: Нейролингвистические исследования: Учеб. Пособие для студ. Психол. фак. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. 14 с.

⁶ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений.- 4-е изд.,испр. – М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 1999, 112 с.

kattalar va bolalar o'rtasida muloqot vositasida shakllanadi va bu "simpraktik omil" deb ataladi. Yozma nutq umuman boshqa kelib chiqish va boshqa strukturaga ega. Agar bolada og'zaki nutq 2-3 yoshda shakllansa, yozma nutq 5-6 yoshda ta'lim olish natijasida shakllanadi.⁷ Yozma nutq motivi ham bolada og'zaki nutq motividan kechroq uyg'onadi. Pedagogik tajribalardan ma'lumki, bunday motivni bolada hosil qilish nihoyatda qiyin. Yozma nutq yozish uchun lozim bo'lgan barcha til vositalarini o'zlashtirgandan so'ng paydo bo'ladi. Dastavval, yozuv ko'nikmasi harflarni yozish, keyinchalik so'zlarni yozish monologik va dialogik nutqdan uzilgan so'zlarni mashq qilishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda asosiy diqqat va intellektual tahlil yozuv va o'qish texnikasini egallashga qaratiladi va bolada o'qish va yozish ko'nikmasi shakllana boshlaydi. Yoza oladigan bola nafaqat fikrini yo'naltira boshlaydi, ularni tashqi vositalar tovush, harf va so'z yordamida tashqariga chiqara boshlaydi. Bolada eng muhim bosqich fikr ifodalash boshlanadi. Yozma nutq bola uchun uzoq davr mobaynida o'rganish predmeti bo'ladi va keyinchalik avtomatlashadi. Yozma nutq ifoda vositalarini aniqlash, tahlil qilish yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, yozma nutq taraqqiyotida mavhumlik mavjud. Yozma nutq fikrdan o'takaziladi, talaffuz qilinmaydi, bu ikki nutq ko'rinishini farqlovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Yozma nutq shakllanishiga ko'ra qiyinroq. Yozish faoliyatining ushbu jihati yozma nutqqa tilning ikki sathida lingvistik va psixologik nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi. X.Jekson yozish va uni tushunish "ramziy belgilar" bilan ishlashdek murakkab jarayon. Og'zaki nutqdan foydalanilgan birinchi signal, yozish jarayonida esa ikkinchi signal simvollaridan foydalaniladi. Ushbu signal "ramziy belgilar" qatoridan iborat".

Shu bilan aloqador ravishda yozma nutq og'zaki nutqda aks etmaydigan fazalar, sathlar qatorini tashkil qiladi. Yozma nutq o'zida fonematik sathni, ya'ni

⁷ Лурия А.Р. Язык и сознание. Под редакцией Е.Д.Хомской. Изд-во Моск. Ун-та, 179, 226 с.

alohida-alohida tovushlarni topish, ularni qarama-qarshi qo'yish, alohida tovushlarni harflarda kodlash, alohida tovush va harflardan butun so'z hosil qilishni aks ettiradi. Bu og'zaki nutqda leksemalar ko'rinishida, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish asosida kechadi. Dastavval, yozma nutq o'zida sintaktik sathni aks ettiradi, og'zaki nutqda esa ong ostida joylashadi.⁸ Yozma nutq jarayonida inson ongdagi frazalarni aks ettirmaydi, balki o'zining grammatik va sintaktik qarashlarini, ko'nikmalarini aks ettiradi. Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir muhim farqi shundaki, u "yoyiq grammatika" asosida mavjud bo'ladi. Bu og'zaki nutqda grammatik noto'liqlik shaklida namoyon bo'ladi, yozma nutqda esa bunday holat mavjud emas.⁹

Yoyiq yozma nutqda grammatik sathning murakkab shakllaridan foydalaniladi. Masalan, murakkab qo'shma gaplar. Ular og'zaki nutqda deyarli uchramaydi. Yozma nutq monologik ko'rinishda bo'lib, o'zida til birliklari va matn ko'rinishini aks ettiradi. Yozma nutqni har tomonlama tadqiq qilgan L.S.Svetkova uning o'ziga xos jihatlarini qayd etadilar. Yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan butun. Og'zaki nutqdagi tovushli shakl avtomatlashgan, yozuv o'qish jarayonida analiz va sintez jarayoni yuz beradi. Sintaktik frazalar yozma nutqda xuddi uning fonemalari singari aks etadi.¹⁰

Yozma nutq xususiyatlari.

1. Yozma nutq aqliy jarayon hisoblanadi. Til belgilari va ulardan yozma nutqda foydalanish ongli ravishda yuz beradi.
2. Yozma nutq o'z mohiyatiga ko'ra, "nutq algebrasi, nisbatan qiyin va murakkab nutqiy faoliyat ko'rinishidir".
3. Og'zaki nutq odatda suhbat jarayonidagi so'zlashuvni aks ettiradi. Yozma nutq

⁸Выготский Л.С. Мышление и реч. Изд. 5, испр. – Издательство «Лабиринт», М.: 1999. 272 с.


⁹Глухов В.,Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. М.: Изд-во: АСТ, 2007. – 271 с.

¹⁰Цветкова Л.С. О нарушении активных форм устной речи при динамической афазии. – « Вопросы психологии», 1969, № 1.

esa ish nutqi, fan nutqi, u suhbatdoshlarga mazmun berishni koʻzda tutadi.

4. Ogʻzaki va yozish-oʻqish jarayoni oʻzaro solishtirilsa, u muloqot vositasi sifatida mustaqil holda mavjud boʻlmaydi. U ogʻzaki nutqga yordamchi vosita vazifasini bajaradi.

5. Yozma nutqning funksiyalari ogʻzaki nutqdan koʻra kengroq. Uning asosiy funksiyalaridan biri turli koʻrinishdagi axborotlarni oʻz vaqtida yetkazish va taʼminlash¹¹



NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. Kasbiy lingvodidaktikaning yordamchi tamoyillari qaysilar?
2. Selektivlik tamoyilini tushuntiring.

¹¹Цветкова Л.С. Процесс называния предмета и его нарушение. – « Вопросы психологии», 1972, № 4.

3. Elektivlik tamoyili nima?
4. Lingvistik materialni maqsadli tahlil qilish qanday yo‘llar bilan reallashadi?
5. Selektivlikning asosiy mohiyatini ayting.
6. O‘qituvchi nima asosda darslik va qo‘shimcha o‘quv materiallaridan foydalanadi?
7. O‘quv imkoniyatini bilish qanday imkoniyat beradi?
8. Qaysi tamoyil o‘quvchilarga individual yondashuvni anglatadi?
9. Nutqiy mahoratning aloqadorlikda rivojlanish tamoyilini ayting.
10. Me‘yorning oliy ko‘rinishiga nimalar misol bo‘la oladi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Глухов В.,Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. М.: Изд-во: АСТ, 2007. – 271 с.
2. Цветкова Л.С. О нарушении активных форм устной речи при динамической афазии. – «Вопросы психологии», 1969, № 1.
3. Цветкова Л.С. Процесс называния предмета и его нарушение. – «Вопросы психологии», 1972, № 4.
4. Лурия А.Р. Письмо и реч: Нейролингвистические исследования: Учеб. Пособие для студ. Психол. фак. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. 14 с.

3-AMALIY MASHG‘ULOT:

KOMPYUTER LINGVODIDAKTIKASI VA TA’LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Uzluksiz ta’lim tizimida til o‘rgatishga alohida e’tibor beriladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida chet tilini o‘rganishga ehtiyoj tug‘iladi. Xorijiy tillarni bilish, madaniyatlararo muloqot vositalarini o‘rganish davr talabiga aylandi. 2012-yil 10-dekabrda

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti qabul qilgan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹²gi Qarori bu sohaning istiqbolini belgilovchi davlat hujjatidir.

Lingvodidaktika til o‘rgatish, aniqrog‘i xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini ifoda etish uchun qo‘llanmoqda. Lingvodidaktika va metodika terminlarini sinonim tarzda baholash hollari ham mavjud.

Xorijiy tillarni o‘rganish metodikasi XX asr o‘rtalarida shakllangan mustaqil fandır. Metodikani didaktikaning pedagogika, pedagogik psixologiya oralig‘ida turuvchi bir qismi sifatida baholagan I.L.Bim metodikaning obykti sifatida dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosini tashkil etadigan shakllarni o‘z ichiga oluvchi ta‘lim-tarbiya jarayonini keltiradi.¹³

Kompyuter lingvodidaktikasi va ta‘lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.

Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta‘lim jarayonini yangi bosqichga ko‘tardi, bu o‘z o‘rnida ta‘lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko‘rib chiqish, uni yangi bilim hamda ko‘nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug‘dirdi. Hozirgi vaqtda oliy ta‘lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash, ta‘lim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda multimedia darslarining yaratilishi asosiy yo‘nalishga aylanib qolmoqda.

Til o‘rganishning yana bir muhim usullaridan biri kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Fan-texnika rivoji natijasida til o‘rgatish uchun maxsus kompyuter dasturlari yaratildi. Ularda fe‘llar, zamonlar, modal fe‘llar

¹² PQ-1875-son. 2012- yil 10- dekabr, Toshkent sh.

¹³ Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника: опыт системно-структурного описания. - М.: Русский язык, 1977. –С.21.

tavsifi va zaruriy gap qoliplari keltirilgan”.¹⁴ Zamonaviy ta’lim texnologiyasida til o’rgatuvchi kompyuter dasturlari muhim o’rin tutadi. Bu dasturlarning ayrimlari elektron o’qituvchi bilan ta’minlangan.

O’qituvchi lingvistik avtomatlardan foydalanishda ikki xil yondashuv mavjud:

1) bixevioristik yondashuv – mavjud an’anaviy o’qitish tizimining barcha jabhalarini e’tiborga oluvchi o’qitish mexanizmlari, grammatikaning ma’lum bolimi tugagandan so’ng uni topshiriqlar asosida baholash, shuningdek, leksik minimumlar bo’yicha bilimni nazorat qilishga yo’naltirilgan dasturiy ta’minotga asoslangan o’qitish tizimi. Bunda bixeviorizmning “**stimul – reaksiya – mustahkamlash**” formulasiga asoslaniladi. O’qitish usullari “stimul” (turtki) vazifasini bajaradi, o’rganuvchi bundan ta’sirlanadi va bilimni mustahkamlaydi.

2) kognitiv-intellektual yondashuv – CALL (CALL Software) uchun universal dasturiy ta’minotlar yaratish, o’qitish tizimini lug‘at bazasi, grammatika bo’yicha qo’llanmalar, **avtomatik korrektorlar, speller** bilan ta’minlash, **audio** va **vizual effektlar** bilan boyitish kabi amaliy ishlar majmuyidir.

Til o’rgatishda quyidagi kompyuter dasturlarini qo’lladi:

Taqdimot texnologiyasi, ya’ni mashg’ulotni ko’rgazma sifatida o’tkazish, darsda kompyuterdan foydalanishning eng oson usulidir. Buning uchun o’qituvchiga birgina kompyuter va multimedia proektori kerak bo’ladi. MS Power Point dasturi yordamida o’tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi va ko’rgazmalar paketi tayyorlanadi.

O’zbek tili fani bo’yicha mavjud bo’lgan muayyan darslikning kompyuterdagi varianti (nusxasi) bo’lib, unda multimedia vositalaridan faqat ovoz va matn qatnashadi.

Elektron multimedia darsligi – aynan kompyuter vositasida o’quv kursini yoki uning katta bo’limini o’qituvchi yordamida yoki mustaqil o’zlashtirishni

¹⁴ *Borbala Richter*. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.19.

ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks.

Multimedia (“ko‘p qavatli muhit” degan ma’noni bildiradi) zamonaviy kompyuterlarning, deyarli, barchasida mavjud bo‘lgan imkoniyatlar majmuyini, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko‘rinishlari – matn, jadval, grafika, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida ma’lumotni yig‘ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia “inson-kompyuter” interaktiv (dialogik) muloqotining yangi, takomillashgan pog‘onasi bo‘lib, bunda foydalanuvchi juda keng va batafsil axborot oladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to‘rt dan bir qismini, ko‘rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko‘rib, ham eshitsa, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa bu ko‘rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.¹⁵ Multimediali texnologiya dastur va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli tasviriy axborotlarni tovushli-ovozli, rangli, harakatga keltirilgan holda ifodalash imkoniyati demakdir. Hozirgi kunda tilshunoslik fanlarini o‘rganishda birgina darslik, o‘quv qo‘llanma va ma’ruza matnlari bilan cheklanmasdan, shu fan sohalariga oid multimediali yoki animasiyali o‘quv ko‘rsatuvlari va elektron darsliklar yaratish tilshunoslik sohalarini chuqurroq o‘rganish uchun aniq imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa talabalarning tilshunoslik fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ilmiy ish olib BORISH ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Elektron ensiklopediya – kuchli qidiruv tizimiga ega bo‘lgan ma’lum yo‘nalishdagi illyustratsiyali maqolalar, elektron xaritalar, fotosuratlar, giperhavola (giper murojaat)lar, audio va videoizohlar, xronologik ro‘yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati va hokazolardan iborat bo‘lgan katta hajmdagi elektron dastur.

¹⁵ Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T., 2007. -B.66-67.

Elektron lug‘at – odatdagi lug‘atlar asosida tuzilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur. Elektron lug‘at turli yo‘nalishda tuzilishi mumkin, undan talabning so‘z boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi.

O‘rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o‘rganuvchilar uchun samarali ta‘lim texnologiyalaridir. To‘g‘ri talaffuzni o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida tovushning artikulyatsiya o‘rni, usuli ko‘rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, talabning o‘z talaffuzi yozib kiritiladi, so‘ngra u adabiy til me‘yori bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, audiodasturlar qatoriga “Karaoke” tizimini kiritish mumkin. Undan hordiq chiqarishda yoki biron tadbirni o‘tkazishda foydalanish qulaydir.

Universal test dasturi o‘zbek tili darslarining biror yirik bo‘limi bo‘yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo‘lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta‘minot asosida turli xil test sinovlarini o‘tkazish, ya‘ni faqat matnni o‘zgartirib, dasturni har xil mavzularda qo‘llash mumkin.

Elektron virtual kutubxona – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona.

Internet tarmog‘idan o‘zbek tilini o‘rganuvchilar unumli foydalanishlari mumkin: mustaqil ta‘lim jarayonida ma‘lumotlar to‘plash, mavzularni o‘zlashtirish, berilgan mavzuda referat, insho yozish va boshqalar. Shuningdek, talaba elektron pochta – axborotni bir kompyuterdan ikkinchisiga yuborishni ta‘minlovchi tizim orqali o‘qituvchi yoki tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishi mumkin.

Videomateriallar bilan ishlash til o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining bu vositasi turli ko‘rinishda qo‘llanilishi mumkin.

Masofaviy ta‘lim – masofadan internet tarmog‘i orqali o‘qitish usuli bo‘lib, bu borada respublikamizda ma‘lum sohalar bo‘yicha test-tajribalar

o‘tkazilmoqda¹⁶.

Tillarni avtomatik o‘qitish tizimi hisoblangan kompyuter lingvodidaktikasida quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

- a) Close the gap – bo‘sh kataklarni to‘ldiring topshirig‘i. Bunda semantika + grammatika sohalarini o‘rganish ko‘zda tutiladi;
- b) krossvordlar va leksik o‘yinlar;
- c) elektron pochtdan foydalanib bajariladigan mashq (turli xatlar yoki elektron hikoyalar tuzish asosida - maze) word-hunting;
- d) matnlarning avtomatik tarjimasini va tahriri bo‘yicha mashqlar;
- e) grammatikaning turli bo‘limlari bo‘yicha diagnostik testlar o‘tkazish;
- f) CD-ROMda standart o‘qitish kurslaridan foydalanish.

Mashg‘ulotlarda kompyuterdan foydalanishning turli-tuman usullari mavjud. Sanab o‘tilgan va boshqa bir qator kompyuter texnologiyalarini til o‘qitish jarayonida qo‘llash yuqori natijalar beradi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. Lingvodidaktika va metodika terminlarini izohlang.
2. “Lingvodidaktika” qanday fanlar guruhiga kiradi?
3. Bixevioristik yondashuvning xususiyatlarini ayting.
4. Elektron ensiklopediya nima?
5. Elektron virtual kutubxona deganda nimani tushunasiz?

¹⁶ Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T., 2007. -B.66-67.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. – London, 1971. – P. 27; Верецагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. – М., 1990. – С. 26.
2. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – С 185.
3. Воробьев В. В. О статусе лингвокультурологии // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т. 2. –Братислава, 1999. –С. 125-126. Батафсил маълумот учун қаранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.

**4-AMALIY MASHG‘ULOT:
TIL O‘RGATISH UCHUN MO‘LJALLANGAN KOMPYUTER
DASTURLARI**

Avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli sohalari, balki madaniyat va ta’lim sohalarini ham qamrab oldi. Kompyuter texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga ko’tardi, bu o‘z o‘rnida ta’lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko‘rib chiqish, uni yangi bilim hamda ko‘nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Xususan, ta’lim jarayonida bilimlarni diagnostika qilishning, xorijiy tillarni o‘rgatishning samarali avtomatik tizimi ishlab chiqilgan.

XX asr tarixga ilm-fan inqilobi davri, kompyuter, avtomatizatsiya asri sifatida kirdi. Bu davrda insoniyat og‘ir mehnatini o‘z aqli bilan osonlashtirishga erishdi. Ya’ni ishlab chiqarish jarayonida foydali ish koeffitsiyenti bir necha barobarga oshdi, mehnat unumdorligi o‘tdi. Insoniyat yirik zavod, fabrikalarni, korxonalarini avtomatlashtirishga erishdi.

“Avtomatizatsiya” so‘zi lotincha “o‘zi harakatlanadi” degan ma’noni

bildiradi. Tizim mustaqil harakatlanishga asoslangan, turli operatsiyalar bajarishga yo'naltirilgan va shu tamoyilda ishlashga moslab dasturlashtirilgan mexanizmlar yig'indisidir. Hammaga ma'lumki, yirik korporatsiyalarda, masalan, avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlarda avtomatizatsiya tizimi keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim optimalligi sababli jamiyatning boshqa sohalariga ham asta-sekinlik bilan tatbiq etilmoqda. Hozirda til o'rgatishning avtomatik tizimlari ishlab chiqilgan. Til o'rgatish maxsus o'quv dasturlari yordamida amalga oshiriladi.

Til o'rgatishda kompyuterdan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar XX asrning 60-yillarida Stenford (Russian Program) va Nyu-York universitetlarida (Das Deutche Program) o'tkazildi. XX asrning 70 – 80-yillarida til o'qitishda kompyuterdan foydalanishga bo'lgan qiziqish kuchaydi va alohida “Computer Assisted Language Learning (CALL)” yo'nalishining yuzaga kelishiga asos bo'ldi.¹⁷ CALL bo'yicha 1-xalqaro konferensiya 1985-yil 12 – 13-noyabrda Budapesht shahrida o'tkazildi. 2-xalqaro konferensiya 1989-yil 15 – 17-noyabrda bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiyalarda kompyuter yordamida xorijiy tillarni o'rgatishning yangi metodlari taklif etildi, o'qituvchi lingvistik avtomatlar xususida qimmatli mulohazalar o'rtaga tashlandi, o'qitishda audio va video vositalardan foydalanish samarali ekanligi ta'kidlandi.

Dunyo miqyosida kompyuter tizimini o'quv jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha yetarli tajriba to'plangan, bu borada olib borilgan muhim ilmiy-metodik tadqiqotlar, ko'pgina ta'limiy-nazorat dasturlari, multimedia darsliklari yaratilgan.

Ingliz tilini o'rgatishga mo'ljallangan quyidagi oquv dasturlari mavjud:

TOEFL tizimi – ingliz tilini avtomatik o'qitishga mo'ljallangan, eng rivojlangan xalqaro dastur. Inglizcha Testing Of English as a Foreign Language so'zlari bosh harfidan olingan qisqartma bo'lib, ingliz tilidan xorijiy til sifatida sinov standarti hisoblanadi. Dunyoning, deyarli, barcha mamlakatlarida amal qiladi. Bu tizim ingliz tilini o'rgatish bilan birgalikda o'zlashtirilgan bilimlarni diagnostika qila olish imkoniyatiga ham ega. Amerika universitetlari yoki

¹⁷ [http:// www.yazykoznanie.ru](http://www.yazykoznanie.ru)

kollejariga kiruvchilar uchun sinov vazifasini o‘taydi.

IELTS – International English Language Testing System, ya’ni Xalqaro ingliz tili sinovi tizimi. TOEFL tizimiga o‘xshaydigan avtomatik til o‘rgatish va bilimlarni diagnostika qilish tizimi. U grammatika, lug‘at, o‘qib va tinglab tushunish, to‘g‘ri jumla qurish kabilar yuzasidan bilimlarni baholaydi.

IELTS – International English Language Testing System, ya’ni Xalqaro ingliz tili sinovi tizimi. Imtihonning maqsadi ingliz tilida o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarining qay darajada shakllanganligini baholash hisoblanadi.

TOEFL – Testing of English as a Foreign Language so‘zlarining bosh harflaridan yasalgan qisqartma so‘z bo‘lib, Amerika universitetlari yoki kollejariga kiruvchilar uchun sinov vazifasini o‘taydi.

Mazkur dasturlarning bosh maqsadi ingliz tilini mukammal o‘rganishni ta’minlashdan iboratdir. IELTS tizimi Buyuk Britaniya ingliz tiliga asoslangan bo‘lib, aynan ingliz tili grammatikasiga tayangan holda o‘qitishni nazarda tutadi. TOEFL dasturi Amerikada foydalaniladigan ingliz tili qonun-qoidalariga asoslanadi. Ushbu ikki dastur test olinish usuli, vazifalari, turlari, baholash, test o‘tkazilish jarayoni bilan bir-biridan farqlanadi.

IELTS test dasturining 2 turi mavjud bo‘lib, Umumiy (IELTS General Training Module) va Akademik (IELTS Academic Module) test sinovi qismlaridan iborat. Umumiy yo‘nalishda test topshirganlar o‘rta yoki o‘rta maxsus ta’lim asosida o‘quv faoliyatlarini davom ettirishi mumkin. Oliy ma’lumotga ega bo‘lish uchun esa Akademik test sinovini topshirish talab etiladi.

TOEFL o‘qishga kirish uchun yagona sinov-test tizimi emas. Amerika o‘quv yurtlarida TOEFLga qo‘shimcha ravishda o‘quvchining avval o‘qigan ta’lim muassasidan olgan baholari va ingliz tiliga bog‘liq biror dastur bo‘yicha qo‘lga kiritgan yutuqlari ham hisobga olinadi. Ingliz tilida amalga oshirilgan jamoaviy tadbirlardagi faoliyat ham nazarda tutiladi.

Har ikkala dasturda ham sinov tizimi to‘rt xil shaklda bosqichma-bosqich

amalga oshiriladi. Mazkur dasturlarning farqi bosqichlarni amalga oshirish usullari hamda baholash tizimida namoyon bo'ladi.

IELTS (2 soat 45 min):

- **listening (tinglash)** –30-40 daqiqa davomida, ma'lum axborotni tinglab, unga tegishli bo'lgan 40ta savolga javob berish;
- **reading (o'qish)** – 60 daqiqa davomida muayyan sohaga oid bo'lgan matnni o'qish hamda shunga oid 40ta savolga javob berish;
- **writing (yozish)** – 60 daqidada umumiy mavzuda esse yoki insho yozish;
- **speaking (suhbat)** – 10-15 daqiqa ichida shaxsiy hayoti, faoliyati, kelajakdagi rejalari haqida so'zlab berish.

TOEFL (4 soat 30 min):

- **reading (o'qish)** – 60-80 daqiqada 700 so'zdan iborat, 3-4 fragmentli matnni o'qib tahlil qilish;
- **listening (tinglash)** – ikki xil ko'rinishda: 60-90 daqiqa davomida biror dialogdagi suhbat yoki axborotni tinglab tushunish;
- **speaking (suhbat)** – 6 xil vazifadan iborat: 20 daqiqa ichida 2ta o'zi istagan tanish mavzu, 4ta eshitgan yoki o'qigan mavzularidan biri haqida so'zlab berish;
- **writing (yozish)** – 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish.

Baholash tizimi:

IELTS → 9 ball, TOEFL → 450 (ba'zan 500-550) ball.

Ballar orasidagi tafovut katta. Buyuk Britaniyaning iqtisodiyot yo'nalishidagi universitetlariga topshirish uchun kamida 6 ball, yuridik yoki gumanitar sohaga yo'naltirilgan o'quv yurtlariga topshirish uchun kamida 7.5ball to'plash kerak. IELTS dasturida tanlangan institut yoki yo'nalishdan qat'i nazar, hamma bir xil tartib va talab asosidagi sinovlardan o'tadi. Farq faqat to'plangan ballar va ularning qayerda, qanday tartibda qabul qilinishi bilan izohlanadi. Amerika

magistratura mutaxassisligida o‘qish uchun TOEFL tizimidan to‘plangan ball 61-109 oralig‘ida bo‘lishi kerak. Masalan, Harvard hamda Kolumbiya universitetlariga shu talab asosida talabalar qabul qilinadi.

Bulardan tashqari, **FCE** (First Certificate in English), **CAE** (Certificate in Advanced English), **GRE** (Graduate Record Examinations), **GMAT** (Graduate Management Admissin Test) kabi til o‘rgatuvchi va sinov asosida chet elda o‘qishni ta‘minlovchi maxsus dasturlar ham mavjud.

O‘zbekistonda o‘rta, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan ingliz tili ta‘limi Buyuk Britaniya ingliz tili grammatikasiga asoslangan. Shuning uchun IELTS dasturi mavqeyi va bu tizimda sinov topshiruvchilar soni TOEFLga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu dastur talablari asosida tayyorlanayotganlar soni tobora ko‘paymoqda. IELTS test tuzuvchilarining ta‘kidlashicha, ushbu testlar sinovdan o‘tuvchining umumiy bilimini ham, uning maxsus tayyorgarligini ham tekshirmaydi. Test dasturining asosiy maqsadi test topshiruvchining ingliz tilini kelajakda yetarli darajada o‘zlashtirishini ta‘minlashdir. Lekin, jarayon shuni ko‘rsatmoqdaki, sinov davomida talabgor savollarga to‘g‘ri javob topish uchun mantiqiy fikrlashi, ma‘lumotlarni analiz, sintez qilishi, o‘z ona tili ko‘nikmalari asosida anglab, qayta ishlashi va ularni xorijiy tilga o‘girib, to‘g‘ri ifodalay olishi kerak. Bu jarayon talabgordan muayyan bilimga ega bo‘lishni, maxsus tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Demak, IELTS ingliz tilini mukammal egallash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilibgina qolmasdan, talabgorlarning ingliz tili bo‘yicha bilim darajalarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

IELTS dasturi o‘qish, yozish, eshitish va gapirish ko‘nikmalarining qay darajada shakllanganligini aniqlashda ingliz tilida so‘zlovchi davlatlarda ta‘lim olish jarayonining zarur qismi hisoblanadi. Shu bois IELTS sinovlariga tayyorgarlik ko‘rishning eng asosiy yo‘nalishlari ingliz tilini kundalik turmushda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ingliz tili muloqot tili bo‘lgan davlatlarda ta‘lim olishni maqsad qilgan talabalar bilan ishlash maqsadida borayotgan fuqarolarning tilni bilish ko‘nikmalari farq qilishi mumkin, ammo

IELTS sinovlaridagi topshiriqlarda bu farq belgilovchi rol o'ynamaydi.

Ingliz tilida gaplashadigan davlatlarda ta'lim olish jarayonida quyidagi vaziyatlarga duch kelish mumkin:

- Kitob va jurnallar o'qish;
- Yozma topshiriqlarni bajarish;
- Ma'ruzalar tinglash;
- Seminarlarda qatnashish.
- Ta'lim olish jarayonida sohaga oid turli adabiyotlarni o'qish, aniq bir mavzuga doir ma'lumotlar berilgan gazeta va jurnallarni mutolaa qilish;
- matnlar, jadvallar va chizmalardan kerakli ma'lumotlarni olish;
- olingan ma'lumotlarni tahlil qilish talab etiladi.
- Yozma topshiriqlarni bajarish o'rtaga tashlangan muammoli masalani analiz qilish; yozma ishning rejasini tuzish;
- ijodiy yondashib yozish orqali mavzuni tushunarli tarzda ifodalash,
- o'z fikrini yozma ravishda tahlil qila olish uchun kerak.

Ma'ruzalarni tinglash davomida nutqni tinglab tushuna olish; turli sheva elementlari aralashgan nutqni idrok etish; ma'ruzaning asosiy qismlarini, urg'u berilayotgan ma'nolarini anglash; zarur ma'lumotlarni yozib olish kerak. Bulardan tashqari radio va video orqali ifodalangan turli darajadagi tezlik va shevada gapirilgan nutqni tinglab tushuna olish, nutqning asosiy mazmunini anglay olish hamda zaruriy holatlarda ular orqali yetkazib berilayotgan ma'lumotlarni yozib olish ko'nikmalarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Seminarlarda qatnashish tinglovchilardan matnlar muhokamasida ishtirok etishga tayyor bo'lishni, ma'ruzachi va talabalarning berayotgan savollarini tushuna olishni, savollarni ingliz tilida tushunarli tarzda bera olishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, IELTS dasturi asosida ta'lim olishni ikki bosqichga bo'lib amalga oshirish kerak:

1. Nutq, yozish, o'qish va tinglab tushunishni uzviy o'rgatish. Talabgorning so'z boyligini imkon qadar oshirgan holda ingliz tili grammatikasining eng zaruriy

va murakkab jihatlarini o'rgatish. IELTS sinovini topshirishga oid yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

2. Nutq, yozish, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini keng miqyosda rivojlantirish; gazeta va jurnallar o'qish ko'nikmasini shakllantirish, radio va audioeshittirishlar asosida tinglab tushunish ko'nikmasini mustahkamlash, imkon qadar jonli muloqotni amalga oshirish asosida og'zaki nutq malakasini rivojlantirish.

IELTSni o'rgatish kursi oxirida ta'lim oluvchilar quyidagi ko'nikmalarni to'liq egallagan bo'lishlari zarur:

1) ingliz tilidan ona tili sifatida foydalanuvchilarning o'rtacha tezlikdagi nutqida ifodalanayotgan ma'lumotni tinglab tushuna olish va qabul qilingan ma'lumotni yuqori darajadagi aniqlik bilan (diktant ko'rinishida) eshitilganlarni aynan takrorlamasdan, mazmunini gapirib bera olish;

2) hujjatlarni tashkil etish (masalan, hisobotlar, rasmiy va norasmiy xatlar, chizma va diagrammalardagi ma'lumotlarni matn ko'rinishida ifodalash, referatlar yozish), so'rovnomaga ko'rinishidagi hujjatlarni to'g'ri to'ldira olish. Hujjatlarni ma'lum cheklangan vaqt ichida aniq to'ldirish hamda ma'lumotlarni yozish jarayonida kerakli bo'lgan (rasmiy yoki norasmiy) uslubdagi ingliz tilidan foydalana olish;

3) ma'lum cheklangan vaqt ichida ijtimoiy darajasiga ko'ra muhim bo'lgan turli mavzularga asoslangan insholarni yoza olish;

4) ko'rib chiqish, ma'lumot qidirish va o'rganish usullari orqali anglash, talab darajasida o'zlashtirish. Cheklangan vaqt ichida aytilayotgan (og'zaki nutq) yoki yozilgan (matn) axborot ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topa olish;

5) ma'lum bir mavzuning asosiy mazmunini og'zaki tarzda bayon qila olish; mavzu asosida berilishi mumkin bo'lgan savollarga javob berish va buni mos uslubdagi ingliz tili asosida amalga oshira olish;

6) ingliz tilida asosiy bilimlarning puxta o'zlashtirilganligini namoyon eta olish (masalan, til grammatikasi, leksikasi, orfografiyasi va boshqalar).

IELTS test sinovi barcha ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun butun bir imkoniyatlar majmuyidir. Bu sinov tizimi ingliz tilining mavqeyini yanada oshiradi. IELTS va shu tipdagi test sinovlarini kuzatib, xulosa chiqarish mumkin-ki, o‘zbek tilini o‘rganishni xohlagan, shu tilda o‘qishni davom ettirmoqch bo‘lgan chet ellik talabalar uchun sinov turlari ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xorijiy tillarni o‘rganish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar shuni anglashlari lozimki, xorijiy tilni o‘rganish milliy til imkoniyatlarini to‘liq o‘zlashtirish negizida amalga oshirish lozim.¹⁸

ENGLISH FOR ALL (“Hamma uchun mo‘ljallangan ingliz tili”) – O‘zbekistonda yaratilgan avtomatik o‘qitishga asoslangan dastur. Unda o‘quvchiga ingliz tilidagi tovushlar va ularning talaffuzi audioeffektlar yordamida tushuntiriladi, qisqacha ingliz tili grammatikasi bayon etiladi, mashqlar va testlar yordamida bilim tekshiriladi. Ushbu o‘quv dasturining afzal tomoni shundaki, unda o‘qitish tizimi videoeffektlar bilan ham boyitilgan, ingliz tilidagi multfilmlar kiritilgan va inglizcha qo‘shiqlar karaoke bilan ta‘minlangan.

WAY TO PERFECTNESS (“Mukammallik uchun yo‘l”) – ingliz tilini avtomatik tarzda o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv dasturi bo‘lib, multimedia asosida ish ko‘radi. Dasturning yuqoridagilardan farqli tomoni shundaki, unda dastur “electron” (“virtual”) o‘qituvchi bilan ta‘minlanganidir.

REWARD – bir necha yil davomida o‘qitishga mo‘ljallangan til o‘rgatish tizimi.

PROFESSOR HIOGTNS – АНГЛИЙСКИЙ БЕЗ АКЦЕНТА – fonetik tizim asoslarini o‘rganishga qaratilgan dastur, ingliz tilida aksentsiz talaffuz me‘yorlarini o‘rgatuvchi tizim.

REPETITOR ENGLISH – Moskvadagi ingliz tilini o‘rgatuvchi xalqaro markaz tashabbusi bilan yaratilgan. Mazkur tizim ingliz tilini turli xil zamonaviy

¹⁸Sharopova S. Til o‘qitish dasturlarining amaliy ahamiyati. Metodist. Ilmiy maqolalar to‘plami. –Toshkent, 2017. -B.8-12.

metodlar va elektron metodik ishlanmalar paketi yordamida avtomatik tarzda o'rgatishga mo'ljallangan.

EURO PLUS – ingliz tilini uch yil davomida bosqichma-bosqich (Elementary, Intermediate, Upper intermediate, Advanced English), tizimli tarzda o'rgatishga asoslangan avtomatik o'qitish tizimi.

Bulardan tashqari, til o'qitish dasturlari, videodarslari jamlangan internet saytlari ham mavjud:

BOND.UZ – ingliz tilini o'rgatish dasturlari, videodarslari jamlanmasi. Masalan, mazkur saytdagi “O'n kun ichida ingliz tilini o'rganamiz” videodars jamlanmasi “Asosiy tushunchalar”, “Sodda gaplar”, “Noto'g'ri fe'llar”, “Kishilik olmoshlarining to'ldiruvchi shakli”, “Savollar va so'roq so'zlar”, “*To be* fe'li”, “Qo'shimchalar va so'z yasalishi”, “Sifat va sifat darajalari”, “Predloglar”, “Yakunlovchi qism” kabi o'nta mavzudagi ixcamlashtirillgan, jadallashtirilgan kursni qamrab olgan.

Bugungi kunda o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasini ishlab chiqish o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradigan, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabat, qiziqishni shakllantiradigan ta'limiy-elektron ishlanmalarni yaratishning umumiy va xususiy mezonlarini belgilash zarurati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda Rossiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda ta'limiy-elektron ishlanmalarni yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsepsiyada ishlanmalarning mohiyati, uini yaratish, tekshirish va qo'llash tartibi belgilanadi. Mutaxassislarning fikricha, ta'limiy-elektron ishlanmalar, asosan, texnik, pedagogik, metodik talablarga javob berishi zarur.

Til o'qitishning avtomatik tizimi yildan yilga rivojlanib, yangi effektlar bilan boyib bormoqda. Bu tizimni yanada rivojlantirish, kompyuter lingvodidaktikasini yangi dasturiy ta'minotlar va pedagogik texnologiya, bilimlar diagnostikasi bilan boyitish kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Yaratilgan dastur va boshqa elektron ishlanmalarning sifati, albatta, mualliflarning shaxsiy qarashlariga, ilmiy-metodik saviyasiga va umumiy madaniyatiga bog'liqdir. Bu o'ziga xos murakkabliklarga ega. Masalan, ba'zi ta'limiy – elektron ishlanmalar ko'zlangan maqsadga to'la-to'kis erishishga xizmat qilsa, ba'zilari o'ta qiziqarli, estetik jihatdan yuqori sifatli bo'lishiga qaramay, muayyan mavzu bo'yicha kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qilmaydi, informatika va informatsion madaniyat kursini o'rganishgagina yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga, ayniqsa, til o'qitishga kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi XX asr ta'lim tizimining muhim talablaridan biri sifatida maydonga chiqdi. XXI asr – axborot asrida kompyuter texnologiyasidan quyidagi maqsadlarda til o'qitishda keng foydalanish yo'lga qo'yildi:

- a) o'zbek tilini ona tili sifatida, o'zbek tilini chet tili sifatida va chet tillarini o'qitish jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish. Bu muammoni hal etish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda;
- b) kompyuter ma'lumotlaridan tilning grammatika tizimi, fonetikasi va leksikasini o'qitishda foydalanish;
- v) kompyuter dasturidan o'zbek tili va chet tillari bo'yicha olingan bilimlarni baholash maqsadida foydalanish kabilar.

Kompyuter lingvistikasi yordamida til o'qitishni maqsadga muvofiq yo'lga qo'yish uchun, dastavval, o'zbek tilidagi barcha so'z shakllarini o'z ichiga olgan kompyuter dasturlari yaratilishi lozim. Shu dasturni amalga oshirish maqsadida 2003-yilda Toshkentda "Dunyoviy o'zbek tili" asari birinchi jildi yaratildi. O'zbek tili negizidagi mashina tilini yaratish asoslari ishlab chiqilgan. Bu asarda o'zbek, rus va ingliz tillarini qiyoslash orqali o'zbek tili grammatikasidagi afzalliklar va ayrim ziddiyatlarni inobatga olgan holda ma'lumotlar bazasi keltirilgan.

O'zbek tilidagi 500 dan ortiq fe'lni LSG (lug'aviy semantik guruh)ga ajratib, har bir fe'lning grammatik xususiyatlari, valentlik imkoniyatlari ko'rsatilgan holda dasturlar yaratish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan va ular hozirgi kunda

til o‘qitishda sinovdan o‘tkazilmoqda. Masalan, M.Y.To‘xtamirzayev tadqiqoti milliy maktablarda rus tilini teleekran yordamida o‘qitish, A.N.Maxammatovning nomzodlik dissertatsiyasi esa musiqa darslarini modellashtirish muammolariga bag‘ishlangan. Sh.Yusupova nomzodlik dissertatsiyasida ona tili ta‘limi samaradorligini oshirishda noan‘anaviy usullar va EHMdan foydalanish haqida so‘z yuritiladi. Mazkur ishda umumta‘lim maktablarida ona tili bo‘yicha noan‘anaviy dars o‘tish metodlari keng ko‘lamda aks etgan bo‘lib, kompyuter texnologiyalarining birgina passiv, nafaol turi qisman yoritilgan. S.Adilova tadqiqotida rusiyzabon guruhlardagi o‘zbek tili ta‘limi mazmuni uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga amal qilingan holda belgilangan, bu fanni o‘qitishda mashg‘ulotlarni kompyuter vositasida tashkil etishning nazariy asoslari yaratilgan, o‘zbek tili dasturiga kirgan til sathlari bo‘yicha ta‘limiy elektron ishlanmalarning loyihasi (maketi) ishlab chiqilgan.

O‘zbek tilini o‘qitishda quyidagi turdagi topshiriqlardan ham foydalansa bo‘ladi:

1. “Bo‘sh kataklarni to‘ldiring” topshirig‘i:

Masalan, **Men til o‘rganish... yaxshi ko‘raman.**

2. Elektron pochtdan foydalanib xabarlar jo‘natish;

Masalan, Dear students! You must send little story in uzbek language about you to this mail address: lobar. abduhamidova@mail.ru;

3. Matnlar tarjimasiga doir mashqlar:

Masalan, **I promise you to come at this time tomorrow.**

O‘zbek tilini o‘rganishga doir elektron lug‘atlar va qo‘llanmalar mavjud. Hozirgi kunga qadar o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun ingliz tilidagi IELTS, TOEFL, ENGLISH FOR ALL kabi universal eelektron dasturlar yaratilmagan.

Quyida internet ma‘lumotlaridan ayrimlarini keltiramiz:

1. Word formation suffixes.

Nominals and verbals with new lexical meanings can be created in Uzbek language

through suffixation. So by adding suffixes we create new lexical meaning:

Bosh – head (anatomy)

Boshliq – chief, foreman

Boshlamoq – to begin (infinitive)

Adding a suffix to a verbal root or word also produces a nominal or a verbal with a new lexical meaning:

Boshlanmoq – to be begun (infinitive)

boshlang‘ich – beginning elementary

2. Grammatical suffixes

Grammatical functions like number, case, mood or tense is accomplished by adding suffixes to words. These grammatical suffixes change the relationship of one word to other words in a sentence, but they do not change the basic lexical meaning of the word:

Lexical Grammatical

uy home; **uyda** at home

uylamoq to marry; **uyga keldi** he came home

uylanmoq to get married; **uylandi** he got married

3. Plural suffix

The Uzbek language plural suffix *-lar* is added to nominals to indicate that there is more than one subject or object, but also to verbals to indicate that there is more than one subject. But NOTE that after a numeral, the plural suffix is not added to nominals:

qiz daughter – **keldi** she came

qizlar daughters – **keldilar** they came

uch qiz three daughters

4. Case suffixes

Case suffixes express relationships between nominals and verbals and are equivalent to English 'to', 'in', 'from' and other ideas:

o‘g‘il – son; **o‘g‘ilga** to the son

xalq –people ; **xalqdan** from the people

kitob –book; **kitobda** in the book

5. Possession suffixes

Uzbek has several means of expressing possession. One means require adding possessive suffixes to a nominal:

kitobim my book; **kitobimiz** our book

kitobing your book ; **kitobingiz** your book

(singular) – (plural)

A second means requires the possessive relationship construction.

In Uzbek, the possessor of an object is placed first, often with the suffix -ning, while the person or object possessed is placed second, always with the suffix -i or -si (plural -lari). The Uzbek equivalent of an English phrase like 'my daughter's book' is the following: **qizimning kitobi** daughter+my+of book+her= my daughter's book

6. Infinitive suffix

The Uzbek equivalent of the English infinitive of verbs ('to enter', 'to see', etc.) is created by adding suffix *-moq* to the verbal root. Without this or other suffixes, the verbal root express the familiar or at times impolite imperative mood:

kirmoq to enter (infinitive)

kir! enter (singular, familiar, impolite)

7. mood suffixes

to express moods like the imperative or the conditional, uzbek adds suffixes to verbal roots:

kiring! come in! (singular, familiar, polite)

kirsa if he enters

8. tense suffixes

in uzbek, tenses like past, present, and future are formed by adding suffixes to a verbal root, including the past tense suffix -di:

kelmoq to come (infinitive)

keldi he came

uzbek combines the meanings of english present and future tenses into one idea that is expressed by the suffix -a or -y. this present-future tense indicates that an action occurs as a habit in the present and may occur at some point in the future:

o‘qimoq to read (infinitive);

o‘qiydi he reads (as a habit), he will read (tomorrow);

enjoy learning and practicing, if there are questions, please don't hesitate to post in the comments!

coming up: quiz and examples (suffixations), and some entertainment videos about uzbekistan.¹⁹

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. Til o‘rgatishda kompyuterdan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalar qachondan boshlandi?
2. IELTS va TOEFL tizimlarining bir-biridan farqli tomonlarini ayting.
3. Til o‘rgatish uchun mo‘ljallangan qanday kompyuter dasturlarini bilasiz?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. –Новосибирск, 1989. –С. 75.
2. Цветкова Л.С. Процесс называния предмета и его нарушение. – «Вопросы психологии», 1972, № 4.
3. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений.- 4-е изд.,испр. – М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 1999, 112

¹⁹ L.Abdusamidova. Kompyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo‘nalishi. BMI. –T., 2016.

V. KEYSLAR BANKI



KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.

1-keys. Milliy va umummadaniy kompetensiya nimani nazarda tutadi?

2-keys. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u qanday namoyon boʻladi?

3-keys. Tilga “tashqi” jihatdan yondashilganda, u nimani koʻrsatadi?

4-keys. Antropologiya qanady turlarga ajraladi.


5-keys....madaniy antropologiyaning predmeti sifatida millat, sinf, guruhlarning muayyan davrdagi hayot tarzini tarkib toptiradigan kishilik jamiyati faoliyatining natijalari yigʻindisidir. Nuqtalar oʻrnini toʻldiring.

6-keys. insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini oʻrganadi, til va madaniyatning oʻzaro aloqasiga alohida eʼtibor qaratadi. Nuqtalar oʻrnini toʻldiring.

7-keys. Qaysi fan insonning shakllanishi va rivojlanishini oʻrganadi?

8-keys. Nima ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi?

VI. GLOSSARIY



GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi tarjimasini
Argo (frans.)	yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rlar)ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili.	fake language. The artificial language of a social group, category (for example, students, athletes, thieves), which is a collection of vocabulary items that are not understood by others.
Analiz	tabiiy til xususiyatlarini tushunish uchun kompyuterda amalga oshiriladigan morfologik, sintaktik va semantik tahlil. <i>Morfologik analiz</i> morfemalarga ajratish hamda grammatik ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi.	computer-based morphological, syntactic, and semantic analysis to understand natural language features. Morphological analysis includes the division into morphemes and the analysis of grammatical data.
Analogiya –	o'xshatish, o'xshatma, o'xshashlik.	to resemble, to simulate, to resemble.
Assimilyatsiya	qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir.	is the adaptation of a series of speech sounds to one another.
Aspekt	Nuqtai nazar, qarash (biror narsani, voqeani, hodisani tekshirish, yoritish va sh.) Masalani turli aspektlarda tekshirmoq.	Regardless of the point of view (something, event, illumination, etc.) to examine the issue in various aspects.
Amaliy tilshunoslik	Tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas., mashina tarjimasini) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohalari (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).	Areas of practical linguistics (such as experimental phonetics, lexicography, and linguistics), taking into account linguistic issues

		(eg machine translation).
Avtomatik tahrir	kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompyuterdagi matn muharrirlari (Microsoft Word, Exel, Wordpad, Lexion) rivojlanishi bilan bogliq bo‘lgan tahrir jarayoni. Avtomatik tahrir matndagi mexanik xatolarning avtomatik tarzda to‘g‘rilanishi va xato ekanligi haqidagi signallarning userga taklif etilishi kabilar bilan bog‘liq.	One of the main areas of computer linguistics is the editing process associated with the development of computer text editors (Microsoft Word, Exel, Wordpad, Lexion). Automatic editing is related to automatic correcting of mechanical errors and inviting user to receive error signals.
Bixevioristik yondashuv	mavjud an‘anaviy o‘qitish tizimining barcha jab-halarini e‘tiborga oluvchi o‘qitish mexanizmlari, bilimlarni baholash, shuningdek, leksik minimumlar bo‘yicha bilimni nazorat qilishga yo‘naltirilgan dasturiy ta‘minotga asoslangan o‘qitish tizimi. Bunda bixeviorizmning “stimul-reaksiya-mustahkamlash” formulasiga asoslaniladi. O‘qitish usullari “stimul” (turtki) vazifasini bajaradi, o‘rganuvchi bundan ta‘sirlanadi va bilimni mustahkamlaydi.	a training system that focuses on all aspects of the existing traditional teaching system, a software-based learning system that focuses on knowledge assessment, as well as on the control of lexical minimums. This is based on the "stimulus-reaction-reinforcing" formula of bicycleiorism. Teaching methods act as a “stimulus” for the learner, as well as the learner.
Geshtalt psixologiya	<i>gestalt</i> —shakl, obraz/ - G‘arbiy yevropadagi yetakchi psixologik yo‘nalish bo‘lib asoschilari tarafdorlarining asosiy g‘oyasi – psixikadagi yaxlitlikni qidirib qator sof psixologik hodisalar mohiyatidan chetlashdi. Asosiy	<i>gestalt</i> — form, image / - The leading psychological direction in Western Europe, the founders of the founders, abandoned a number of pure psychological phenomena

	g'oyasi – “figura va fon” haqidagi ta'limotdir.	in their quest for integrity in the psyche. The basic idea is the doctrine of “figure and background”.
Glottoxronologik metod	til doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisadir. Ana shunday o'zgarishlar davrlar o'tishi bilan yig'ilib, miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib keladi.	language is a dynamic phenomenon that is constantly growing and developing. Such changes accumulate over time, and quantitative changes lead to qualitative changes.
Deduksiya <i>r+lot.</i>	Umumiy holatdan xususiy holatga o'tib muhokama yuritish; umumiy holatdan juz'iy natija chiqarish	Discussion from general to private; to produce a partial result from the general state
Distributiv metod	(inglizcha distributsiya - taqsimot) yordamida tildagi birlik va va elementlarning qo'llanish o'rinlari va holati tushuniladi.	(English distribution - distribution) means the use of language units and the position and position of elements.
Jargon	biror guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zgacha ma'noda qo'llaydigan o'z va iboralar.	words and expressions used by members of a group in a special way to separate themselves from the majority.
Innovatsiya	ijtimoiy amaliyotda sezilarli o'zgarishlar tug'diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.	to create and introduce various innovations that will bring about significant changes in social practice.
Intellektual sistema	bilimlar bazasi, masalani yechuvchi tizim va intellektual interfeyslarni o'z ichiga oluvchi tizim.	knowledge base, problem solving system and system containing intellectual interfaces.
Kvantitativ metod	lisoniy tillarni belgilashda va tillarni oilalarga birlashtirishda kvantitativ va tarixiy-genetik metodlardan keng foydalaniladi.	Quantitative and historical-genetic methods are widely used in the design of linguistic

		languages and in the integration of languages into families.
Kontrast distributsiya	go'yo zidlovni eslatadi. Bir o'rinda qo'llanib, ma'noni farqlashga xizmat qiluvchi elementlar kontrast distributsiya deyiladi: tok-pok-nok so'zlari boshidagi undoshlar kontrast distributsiya bo'lib, shu so'zlarni farqlaydi.	as if it were a contradiction. Elements that serve to differentiate meaning are called contrast distributions: the consonants in the beginning of the talk-talk-pok are the contrast distributions that differentiate those words.
Komponent tahlili metodi	ko'proq semantikada so'zlarning ma'nolarini chuqurroq o'rganishda qo'llanadi. Bunda so'zlarning ma'nolari ularning farqlanuvchi semantik belgilari – semalar yordamida tahlil qilinadi.	it is used in more semantics to deepen the meaning of words. Here the meaning of words is analyzed using their semantic signs - semesters.
Kognitivizm	/lot. <i>ogito</i> – fikr bilan/ - faqat tafakkur qilish yo'li olamni bilish g'oyasini ilgari suruvchi yo'nalish.	lot. <i>ogito</i> - with the mind / - the only way of thinking is the way forward for the idea of knowing the universe.
Lingvodidaktika	Tillarning muvofiq keluvchi va farqli jihatlarini tadqiq qilish, o'rganilayotgan til strukturasini tahlil qilish, lingvistika va pedagogika chegarasida turgan muammolarni hal qilish	Development of convergent and different aspects of language management, analysis of their management and structure, solving problems within the boundaries of linguistics and pedagogy

<p>Lingvodidaktikaning asosiy tamoyillari</p>	<p>Ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili. Kompetensiyaviy yondashuvni e'tiborga olish tamoyili. Internatsionallik tamoyili. Integrativlik (implitsitlik) tamoyili.</p>	<p>The principle of taking into account the socio-professional environment. The principle of taking into account the competency approach. The principle of internationalism. The principle of integrativity.</p>
<p>Lingvodidaktikaning yordamchi tamoyillari</p>	<p>Ijtimoiy-kasbiy muhitni hisobga olish tamoyili. Kompetensiyaviy yondashuvni e'tiborga olish tamoyili. Internatsionallik tamoyili. Integrativlik (implitsitlik) tamoyili.</p>	<p>The principle of intercultural feature. The principle of taking into account the age characteristics of the participants. The principle of autonomy in the learning process. Problem-based learning.</p>
<p>Maydon metodi</p>	<p>leksik-semantik maydon yoki grammatik-leksik maydon va ba'zan maydon nazariyasi.</p>	<p>lexical-semantic field or grammatical-lexical field and sometimes field theory.</p>
<p>Metod</p>	<p>har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan (masalan, qiyoslash metodi), manbalarni to'plash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni o'rganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar va rivojlanish jarayonlarini, o'zgarishlarni bilish va aniqlash uchun qo'llanadigan uslub va yo'llar majmuidir.</p>	<p>a set of methods and techniques used to identify and identify all units, levels, and development processes in a language to collect and classify resources, to study the main features that are specific to each subject and common to all disciplines (for example, a comparison method).</p>


Metodologiya	(grekcha <i>methodos</i> - bilish yo‘llari, ilmi) qanday nazariya va printsiplar asosida ilmiy tadqiq qilish poydevorini yaratishdir.	(The Greek <i>methodos</i> - ways of knowing, science) is the foundation of scientific research on the basis of the theory and principles.
Metodika	ilmiy metod natijasida aniqlanganlarni amalda tadbiq etishdir. Shu mazmunda xorijiy tillarga o‘rgatish ham o‘z metodikasiga ega. Ularni interaktiv metodika, tarjima vositasida tilga o‘rgatish metodikasi deb ataladi.	the practical application of the results obtained by the scientific method. In this context, teaching foreign languages also has its own methodology. They are called interactive techniques, the technique of language teaching through translation.
Model (lot. <i>modelus</i> “nusxa”, “andaza”, “o‘lchov”, “me‘yor”)	muayyan original-obektning hosilasi, moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi. Model tabiiy obektlarning imitatsiyasidir (o‘xshashi, taqlidiy ko‘rinishi), u o‘zbek tilidagi qolip, andaza so‘zlariga mos keladi. Masalan, <i>globus</i> yerning modeli, <i>o‘yinchoq mashina</i> haqiqiy mashinaning modeli.	derivation of a particular original object, a material device, a graphic, a scheme, and generally a means of knowing. The model is an imitation of natural objects (similar or imitation), which fits in with the Uzbek mold and standard words. For example, a globe earth model, a toy car is a model of a real car.
Modellashtirish	barcha fanlar uchun xos bo‘lgan umumilmiy metod.	a general method common to all disciplines.
Muammo	nazariy bilish shakllaridan biri bo‘lib, hali o‘rganilmagan, lekin o‘rganilishi lozim masalani o‘z ichiga oladi.	is one of the forms of theoretical knowledge that has yet to be explored but has to be studied.

Lingvistik universalিয়া	barcha tillarga yoki dunyo tillarining mutlaq ko'pchilik qismiga xos umumiy qonuniyatlar	general laws common to all languages or the absolute majority of world languages
Neyron tarmoqlar	inson miyasidagi neyronlar modeli asosida yaratilgan, sun'iy intellektning muhim tarkibiy qismi hisoblanadigan tizim	a system based on the neural model of the human brain, an essential component of artificial intelligence
Neologizm (yun.)	yangi o'z, iboralar. Neologizmlar – taraqqiyotni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashib ketmagan o'zlardir.	new self, phrases. Neologisms are new, uncontested ones created to define concepts related to accelerating development.
Persepsiya	/lot. <i>perepti</i> – idrok qilish / - tub ma'noda ham shaxsning idrok jarayoni nazarda tutiladi.	perepti - perception / - literally refers to the process of perception of the individual.
Sintez	kompyuterda matnning grammatik shakllantirilishi va generatsiyasi (hosil qilinishi). <i>Morfologik sintez</i> matnga avtomatik ishlov berish jarayonida yoki uning so'nggi bosqichida (natijalarni inson hukmiga havola qilishda) so'zlarning turli shakllarini chiqarish, analiz natijalarini umumlashtirish iborat.	grammatical formation and generation of text on a computer. Morphological synthesis consists of summarizing the results of various forms of words in the process of automatic processing of text or its final stage (referring the results to human judgment) and generalizing the results of the analysis.
Selektivlik	mutaxassislarga tilni noldan boshlab emas, til	
Slot	freymni tashkil etuvchi qismlar. Slotlarda ob'ektlarga xos	frames that make up the frame. The slots contain

	belgilar ma'nosi qayd etilgan bo'ladi.	the symbols of object-specific characters.
Tavsifiy metod	tilshunoslikdagi eng qadimiy va eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Ayniqsa, u til o'qitish tajribasi uchun katta ahamiyatga ega.	is the oldest and most widely used method in linguistics. It is especially important for the language teaching experience.
Tavsif qilish metodi	tildagi turli hodisa va ma'lumotlarni, uning sathi va birliklarini izohlab beradi. Bu metod yordamida turli tillarning fonetika va stilistikasi sharhlab beriladi.	interprets various events and information in a language, its levels and units. This method explains the phonetics and stylistics of different languages.
Tarixiy-genetik (geneologik) metod	tillarning fonetik, leksik-grammatik birliklarini qiyoslab, ularning o'xshash belgilarini aniqlash asosida muayyan til oilalariga birlashtirib o'rganish tarixiy-genetik metod hisoblanadi.	Historical-genetic method of studying phonetic, lexical-grammatical units of languages and their integration into certain language families on the basis of identifying similar signs.
Transformatsiya metodi	tildagi elementlar va birliklarning turli gaplarda boshqacha yo'l bilan qayta tuzishda qo'llaniladi. Transformatsiyaning sintaksisdagi elementlarni o'zgartirishda qo'llanuvchi oddiy turlari: o'rin almashtirish, qo'shish, qisqartirish va tushirib qoldirishdir.	It is used in different ways to rearrange elements and units in language. Simple types of transformations used to change elements in syntax are: moving, adding, subtracting, and omitting.
Flektiv tillar	o'zak morfema va affiksial morfema chegarasini ajratish qiyin bo'lgan tillar.	languages that are difficult to differentiate between the root morpheme and the affix morpheme.
Formal grammatika	muayyan shakllar yordamida sun'iy til belgilari orqali ifodalangan	a set of grammatical rules expressed through

	grammatik qoidalar majmui.	artificial language symbols using certain forms.
Freym (inglizcha <i>frame</i> – “karkas”, “ramka”, “skelet”)	bilimlar strukturasi o'ld tayanch tushunchalardan biri, sun'iy intellekt tizimida bilimlarni, stereotip (juda ko'p kuzatiladigan, tipik) vaziyatlarni gavdalantirishning bir usuli. Freymga modellashtirilayotgan hodisa, vaziyat va jarayonlarni umumlashtirilgan holda joylashtirish mumkin. Freym turlari: freym-namunalar, freym-strukturalar, freym-rollar, freym-ssenariylar, freym-vaziyatlar.	One of the key concepts in the structure of knowledge is a way of introducing knowledge, stereotypes (typical, common) situations in the system of artificial intelligence. The framework can be summarized by generalizing the events, situations, and processes that are being modeled. Frame-types: frame-patterns, frame-structures, frame-roles, frame-scripts, frame-states.
Freym-ssenariy	ba'zi harakat, voqea-hodisalarning xarakterli jihatlarini o'z ichiga olgan tipik strukturalar hamda vaziyatlarning rivojlanishi, ketma-ketligi (algoritmik bosqichlari).	some of the actions, typical structures that contain the characteristics of events, and the development, sequence (algorithmic stages) of situations.
Eksperimental fonetika	nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi havo tebranishi, tebranish miqdori sarflangan vaqt, oberton qanday yuzaga chiqishi kabilar ma'lum texnik apparatlar vositasida aniqlanadi va shu asosda fonetik qonuniyatlar bo'g'in, urg'u, intonatsion xususiyatlar aniqlanadi.	air vibrations in articulation of speech sounds, the amount of vibration spent, and how the oberton is formed are determined by certain technical devices, and on this basis phonetic regularities are defined as syllables, accents, and intonation features.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябр “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони

III. Maxsus adabiyotlar

9. Акопянц А.М. Прагматика и лингводидактика. - М., 2008.
10. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008.
11. Богин Г.И. Современная лингводидактика. Калининский гос.унив., 1980
12. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. - Budapest, 2006.
13. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. Учебное пособие. Академия, 2009.
14. Дроздова Т.В. Профессиональная коммуникация: лингвистика, лингводидактика, межкультурное общение. Монография. Изд-во АГТУ, 2011.
15. Кочергин И. Очерки лингводидактики китайского языка. - М., 2017.
16. Крупченко А.К., Кузнецов А.Н.. Основы профессиональной лингводидактики. Монография. - М.: Академия, 2015.
17. Лингвистические парадигмы и лингводидактика: материалы Международной научно-практической конференции. - Иркутск, 13-15 июня 2007 года.
18. Миролубов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. - М: СТУПЕНИ, ИНФРА-М, 2002.
19. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik.—Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
20. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001.
21. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014.
22. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013.
23. Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (Самарқанд шаҳри, 2011 йил, 25-26 март). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2011. – 270 б.
24. Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи

(подготовка переводчиков): Моногр.– М.: Высш. школа, 1989.

25. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. Юлдашев

VIII. TAQRIZ



**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI PROF.
Z.XOLMANOVA TOMONIDAN “LINGVODIDAKTIKA” NOMLI FAN
DASTURI VA O‘QUV-USLUBIY MAJMUAGA
TAQRIZ**

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi tinglovchilarining filologik ta‘lim va til metodikasi haqidagi malakalarini takomillashtirishda “Lingvodidaktika” moduli alohida ahamiyatga ega.

“Lingvodidaktika” modulini to‘liq o‘zlashtirish til ta‘limi masalalarini amaliyotda tahlil qila olish, xususan, didaktik modellarni ishlab chiqish va ularni ona tili ta‘limi jarayoniga tatbiq qilish, til ta‘limi tamoyillarini aniqlash, til bilimlarini o‘zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy va psixologik-individual omillarini belgilash imkonini beradi.

Dasturda modulning fan mazmunini milliy til asoslarini o‘zlashtirishga yo‘naltirish, til o‘qitish jarayoni, mazmuni, yo‘nalishi, usul hamda vositalarini tahlil qilish, ta‘lim subyekting imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, til o‘zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-psixologik omillarini aniqlashdan iborat asosiy maqsadi qayd etilgan.

Modulning niqni o‘qitish maqsadida tavsiflash, tillar o‘rtasidagi universalialar va farqli jihatlarini tadqiq qilish, til o‘zlashtirishdagi nuqsanlar tabiatini o‘rganish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, tilning aktual holati va taraqqiyoti bilan belgilanuvchi lingvomadaniy tajribani anglash va o‘zlashtirishni analiz qilish kabi vazifalari keltirilgan.

“Lingvodidaktika” fani lingvistikaning tarkibiy qismi hisoblanib, tilshunoslikka doir bir qator fanlar aloqador. Dasturda ana shu aloqadorlikning mohiyati ochib berilgan.

Dasturda tinglovchilarga nutq faoliyati zamiridagi jarayonlarni, xususan, nutq hosil qilish, nutqni ifodalash, nutqni qabul qilish, kodlash va dekodlash, til qobiliyati, tilni egallash, kommunikatsiya, shuningdek, individ ruhiyatida kechayotgan psixik hodisalarni psixologik va lingvistik nuqtayi nazarlar ham e‘tiborga olingan.

O‘quv dastur davlat ta‘lim standartlari asosida tuzilgan bo‘lib, mazmun-mohiyati, mavzularning berilish tartibi, ifoda uslubi jihatidan talabga javob beradi.

Dasturdan ma‘ruza mashg‘ulotlari, amaliy mashg‘ulotlar o‘tiladigan mavzular o‘rin olgan. Tavsiya etilayotgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati fanga oid tadqiqotlar, internet ma‘lumotlari bilan boyitilgan.

Ushbu o‘quv dasturini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

B. Mengliyev



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**TOSHD O‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA
O‘QITILADIGAN
“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI”
YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi o‘z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko‘rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “Lingvodidaktika”, “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi”, “Til ta‘limiga psixolingvistik yondashuv”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Jahon adabiy ta‘limining ilmiy–nazariy asoslari”, “Ta‘limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta‘kidlash zarur.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta‘lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta‘lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy ta‘lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsiya etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalanish yuzasidan ham zarur tavsiyalar berilgandigini alohida ta'kidlash mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori



S.Normamatov



T.C.
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamonaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan. Ushbu modulda kredit modul tizimi va o'quv jarayonlarini tashkil etish, tinglovchilarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, jumladan, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direek, Mendeley tizimlari asosida yanada takomillashtirish masalalariga diqqat qaratilgan. Darhaqiqat, bu talab va shartlar amalga oshirilganda, aniqrog'i pedagog-tinglovchilarda bunday malaka va ko'nikmalar shakllanganda uning dunyo pedagogikasi bilan integratsiyasi yanada oshadi, shuningdek, uning ta'limini olgan talabalarning ilmiy saviyasi risoladagidek bo'ladi.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan.

Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "Slipped classroom" kabi zamonaviy pedtexnologiya asoslarini o'zlashtirib, ta'lim jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ushbu modul ham maqsad-vazifalarning aniqqligi va zarurligi nuqtai nazaridan ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har yetuk pedagog o'z fani doirasidagi muhim ma'lumotlarni ingliz tilida bilishi va fikrlarini og'zaki va yozma ravishda yetkaza olishi davr talabidir. Modulning 2-qismida ana shu masalaga ham alohida e'tibor berilgan.

3-modul "Mutaxassislik fanlari"ga ajratilgan bo'lib, bu modulda til va tafakkur munosabatlari, semantika, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlarga o'rin ajratilgan. Adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitishga doir yangiliklarning milliy ta'limga tatbiq etilishi, shuningdek, badiiy matni tahlil etishning interfaol usullarini o'zlashtirish hamisha ijobiy natija beradi. Mazkur modelda shu kabi masalalarning aks etganligini ijobiy yutuq sifatida alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib mazkur dasturni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori